




"Metodist" 2025-yil 2-son

ISSN 3060-4664

METODIST

ILMIY-INNOVATSION, METODIK JURNAL

2025
2-son

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan ro'yxatga olingan. Guvohnoma №229146

1

"Metodist" 2025-yil 2-son

MUNDARIJA

Husanboyeva Q. Boshlang'ich adabiy ta'limda o'qish turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari	3
Yo'ldoshev Q. Adabiy ta'limda dramatik va lirik asarlar bilan ishlash metodikasi (2-qism)	21
Daniyarova S. Umumta'lim maktablarida Navoiy merosini 4k modeli asosida o'qitish	33
Boyqo'ziyev A. Bolta qorovul (hikoya)	38
Abdiraimov Sh. Maktabda ichki monitoring o'tkazishning ta'lim sifatiga ta'siri	55
Saydaxmedova N. Muhammad Yusuf ijodini PIRLS topshiriqlari asosida o'rganish (sinfdan tashqari o'qish)	64
Erkinova N., Karimjonova A. Ona tili darslarini samarali tashkil etishda zamonaviy ta'lim	74
Allamberganova N. Lirik asarlar tahlilida shakl va mazmun munosabati (R. Hamzatovning "Ona tilim" she'ri misolida)	82
Nishonov T. Fidoyi va kamtar metodist olim	89

Mualliflarning fikrlari tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin. Maqolalardagi fikr va mulohazalarning haqqoniyligi va to'g'riligiga mualliflar mas'uldirlar.

2

"Metodist" 2025-yil 2-son

BOSHLANG'ICH ADABIY TA'LIMDA O'QISH TURLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Qunduzxon HUSANBOYEVA
Pedagogika fanlari doktori, professor
El-manzil: qunduz56@gmail.com

Annotatsiya. Ma'lumki, boshlang'ich sinflar o'quvchilarning nafaqat jismoniy va aqliy, balki ruhiy kamolotining ham muhim bosqichi hisoblanadi. Bu jarayonda ularda o'qish va o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada boshlang'ich sinflar adabiy ta'limini tashkil etishda qo'llaniladigan o'qish turlari va ularning xususiyatlari borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'qish, sinfdan o'qish, mustaqil o'qish, sinfdan tashqari o'qish, analitik o'qish, sintaktik o'qish, ichdan o'qish.

Annotation. It is well-known that primary school grades represent an important stage not only for the physical and mental development of students, but also for their psychological growth. During this period, developing their reading and reading comprehension skills is of great significance. This article discusses the types of reading used in organizing literary education for primary school classes and their distinguishing features.

Keywords: reading, classroom learning, independent learning, extracurricular reading, analytical reading, syntactic reading, distance learning.

Аннотация. Как известно, начальные классы являются важным этапом не только физического и умственного, но и психологического развития учеников. В этот период особенно

3

"Metodist" 2025-yil 2-son

важно развивать у них навыки чтения и понимания прочитанного. В данной статье речь пойдёт о видах чтения, применяемых при организации литературного образования в начальных классах, и об их особенностях.

Ключевые слова: чтение, аудиторное обучение, самостоятельное обучение, внеклассное чтение, аналитическое чтение, синтаксическое чтение, дистанционное обучение.

Boshlang'ich sinflar ta'limida o'qish o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra alohida o'rinni egallaydi. O'qish asnosida nafaqat savodxonlik yoki axloqiy tarbiya, balki bilim olish, dunyoqarashni kengaytirish, tasavvurni boyitish, mustaqil faoliyatga intilishning dastlabki belgilari ham shakllana boradi. Boshlang'ich sinflardagi boshqa o'quv fanlarini o'zlashtirishda samaradorlikka erishish o'qish darslarining qanchalik to'g'ri, savodli, oqilona va maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilishi bilan uzviy bog'liqdir.

O'quvchilar matn mutolaasining to'g'riligi, tezligi, ongilligi va mazmunini o'zlashtirish kabi xususiyatlari bilan ilk bor o'qish darslarida tanishishadi. O'qish orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standartlari talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan bilim, egallanishi lozim bo'lgan ko'nikma, malaka va ma'naviy sifatarning shakllantirilishi va takomillashtirilishiga imkon yaratiladi. Bundan tashqari, aynan o'qish asnosida insonni kashf etish, shu jarayonda o'zligini anglash, qolaversa, olam sirlarini bilishga ham erishiladi.

O'quvchiga bilim berish, uning dunyoqarashini kengaytirish, ma'naviyatini sog'lomlashtirish, shaxsiyatida ijobiy tuyg'ularni tarkib toptirish maqsadidan kelib chiqib boshlang'ich sinflar "O'qish savodxonligi" darsliklarida ona tabiat, atrof-olam, vatan tarixi va bugungi qiyofasi, millatning ulug'lari, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular qamrab olingan. Darsliklarda bu yo'nalishlar bo'yicha batafsil tushuncha berishga mo'ljallangan badiiy bitiklar, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar imkon qadar qamrab olinishi maqsadga muvofiqdir. 1-4-

"Metodist" 2025-yil 2-son

sinflar uchun tuzilgan amaldagi "O'qish savodxonligi" darsliklarining barchasida bunga erishishga harakat qilingan.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslarining dastlabki savod o'rgatish bosqichida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish, ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilishga yo'naltirishlar misolida o'qish texnikasi egallanganidan so'ng bu jarayon muayyan badiiy matnlar ustida ishlash asosida murakkablashtirib boriladi. "O'qish savodxonligi" darsliklaridagi mavzular ko'magida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning so'z boyligini orttirish, og'zaki, yozma nutqini to'g'ri shakllantirish, nutq madaniyatini o'stirish, ma'lum izchillikda dunyoqarashini boyitib borish, badiiy savodxonligini shakllantirish, mustaqil faoliyatga yo'naltirish ishlarini ham amalga oshirish nazarda tutilishi maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinflarning "O'qish kitobi" darsliklarida taqdim etilgan har bir rukn uchun tanlangan materiallarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratilmog'i ham o'ta muhimdir. O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishlariga erishish o'qituvchi oldidagi muhim vazifalardandir. Bundan tashqari, o'qituvchi har bir ta'limiy vazifani bajarishni aniq metod va usullardan foydalangan holda amalga oshirishni nazarda tutgan holda ularni zamonaviy-mantiqiy metod va usullar bilan boyitib borilishiga erishishi ham davr talabidir.

Sinfdagi har bir o'quvchining o'qish bo'yicha Davlat ta'lim standart talablariga javob berishi uchun, birinchi navbatda, o'qish ko'nikmasini to'g'ri, puxta egallash va uni takomillashtirib borish zarur. O'qish ko'nikmasi savod o'rgatish jarayonida shakllanadi, o'qitishning keyingi bosqichlarida, badiiy matnlar ustida ishlash asnosida takomillashadi. O'qish ko'nikmasining sifati, asosan, badiiy matn to'g'ri, tez, engli va ifodali o'qishni nazarda tutadi. O'qish darslarida bu ko'nikmaning puxta egallanishiga erishish uchun matn mazmuni yuzasidan mantiqli, o'quvchini mustaqil mulohaza yuritishga, mustaqil faoliyatga undaydigan, unda o'z qarashlari shakllanishiga imkon yaratadigan savol va topshiriqlar

"Metodist" 2025-yil 2-son

tuza bilish, asarlar tahlilini ulardan foydalangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchilar "Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi" darsligi asosida bu ko'nikmalarni egallashlari va asarlar ustida ishlashni boshlang'ich adabiy ta'lim maqsadiga muvofiq tarzda tashkil eta bilishlari ma'naviy komillik sari yuz burgan avlodni shakllantirish garovidir.

Buning uchun avval "o'qish" tushunchasining mohiyatiga kirib olish zarur. **O'qish** – yozilgan matn bilan tanishish, uni tushunish va o'zlashtirishga qaratilgan nutqiy faoliyatning bir turi bo'lib, u shaxslararo kommunikativ faoliyat sohasiga daxldor. O'qish muloqot shakllaridan biri. U til o'rganish jarayonining ham asosi hisoblanadi va matnda ifodalangan ma'lumotlarni o'zlashtirish ko'nikmasini ham shakllantiradi. Bu, o'z navbatida, inson faoliyatining har qanday turida tildan erkin va samarali foydalanish imkoniyatini beradi [1; 347-b].

Psixologik adabiyotlarda "o'qish" tushunchasi zamirida mutolaa jarayonidagi "o'qish texnikasi" va "o'qish asnosida uqish" anglashiladi. O'qish jarayonida o'qilganlarni tushunish o'qish texnikasi bilan bog'liq bo'lib, inson tafakkurining bir ko'rinishi sifatida mutolaa jarayonida matn mazmuniga xos bo'lgan elementlarni o'zaro bir-biri bilan bog'lagan holda mohiyatiga kirish, mazmunni anglash – o'qib tushunish demakdir. Kitobxon nafaqat tayor ma'lumotlarni o'zlashtiradi, balki o'qiganlarini o'z tajribasi, bilimi va mavjud ma'lumotlari bilan taqqoslaydi. O'qish asnosida uqishga ta'sir ko'rsatuvchi faktorlar quyidagilardan iborat:

- ma'lum axborotga ega bo'lish;
- matnning kompozitsion tuzilishini ilg'ash;
- matnga xos til xususiyatlarini farqlash;
- mantiqiy va emotsional ifodalarni tushunish;
- matndagi ma'lumotlarning leksik va grammatik xususiyatlari, ifoda uslubining o'quvchi nutq uslubiga, leksik va grammatik bilimdonlik darajasiga yaqinligi;
- matnni o'zlashtirish asnosida o'quvchi diqqatining uni anglashga yo'naltirilganligi;

"Metodist" 2025-yil 2-son

• o'quvchining matnni o'qish va mazmunini o'zlashtirishdagi individual psixologik xususiyatlari va hk.

Metodik adabiyotlarda o'qish quyidagi umumlashtirilgan turlarga ajratilishi ta'kidlanadi:


- 1) analitik va sintetik o'qish (psixologik xususiyatlarga tayanish);
- 2) tarjimali va tarjimasiz o'qish (o'qilayotgan matnni anglashda ona tilning ishtiroki darajasi);
- 3) lug'at bilan yoki lug'atsiz o'qish (o'quvchilarga yordami darajasi oldindan belgilab qo'yilgan);
- 4) individual, frontal, sinfda va uyda o'qish (o'quv ishlarini tashkil etish shakliga ko'ra);
- 5) ko'rish, kuzatish, izlanish, tanishuv (ko'zda tutilgan maqsadga muvofiqligi va jarayonning borishiga ko'ra).

O'qishning barcha turlari o'zaro aloqadorlikda bo'ladi va hamisha bir-birini to'ldirib boradi. Nutq faoliyatining bu turidan foydalanilganda o'quvchilarning o'qishdan maqsadini anglashi bu jarayonning muhim shartlaridan biri sanaladi.

O'qish ta'lim bilan bog'langanda o'quvchi oldiga qo'yiladigan topshiriqlar o'qishdan oldingi va o'qishdan keyingi ish turlariga ajratiladi. Ta'limda o'qish mutolaa texnikasini o'zlashtirish (harflar, so'z, so'z birikmalari, jumlarlar va ularning tovush turlariga e'tibor) nazarda tutiladi va to'g'ri o'qish, ya'ni tajribali kitobxon tarbiyalashni nazarda tutadi. Tajribali kitobxon bilan tajribasiz kitobxon o'qish asnosida har xil jihatlar bilan ajralib turadi. O'qish tajribasi kam kitobxon sekin va bir xil tezlikda o'qiydi. Bu hol o'qilgan materialning anglanishi (o'qib tushunish ko'nikmasining shakllanishi)ga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sekin o'qish o'qilganlarni aytib berishga tenglashtiriladi. Ko'pincha, diqqat matnning mohiyatiga emas, uning shakliga qaratiladi. Tajribali o'qirmanda maqsad o'qish tezligi bilan birga matn mazmuni ham muhim hisoblanadi. Ya'ni tajribali o'qishda o'qilgan narsaning mohiyatiga kirish va uni o'zlashtirish bir vaqtning o'zida tabiiy ravishda kechadi. Tez o'qiganda ko'zlarning fiksatsiya (astoydil tikilib qarash, zo'rqiqlash)si uncha katta bo'lmaydi. Tez o'qilganda diqqat matnning mazmuniga qaratiladi.

"Metodist" 2025-yil 2-son

Boshlang'ich adabiy ta'limda o'qishning quyidagi turlari ustuvor ahamiyat kasb etadi:



Boshlang'ich adabiy ta'limda o'qish turlari

1. Sinfda o'qish o'quv ishlarini tashkil etish shaklining ma'lum joyga asoslangan turidir. Biror matnni sinfda o'qish ishlari darsda o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Matn ustida ishlash, ya'ni uning o'quv-didaktik tahlili o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligida amalga oshiriladi. O'qish darslarida sinfda o'qilgan har qanday matn tahlilga tortilishi shart. Aks holda, u adabiy ta'limning maqsadiga munosib darajada xizmat qilolmaydi.

2. To'g'ri o'qish xato qilmasdan, yanglishmasdan o'qishni nazarda tutadi, ya'ni to'g'ri o'qish so'zning tovush-harf tarkibini, grammatik shakllarini buzmasdan, so'zdagi tovush yoki bo'g'inni tushirib qoldirmay, boshqa tovushni qo'shmay, harflar o'rnini almashtirmay, aniq talaffuz qilib, so'zga urg'uni to'g'ri qo'yib o'qish hisoblanadi.

To'g'ri o'qish so'zning uzun-qisqaligiga, leksik ma'nosining qanchalik o'zlashtirilganligiga, bo'g'in hamda morfemik tarkibi

"Metodist" 2025-yil 2-son

bilan birga o'quvchining so'z boyligiga ham bog'liq. O'qituvchining tuzilishi murakkab bo'lgan so'zlarni oldindan xattaxtaga yozib qo'yishi, har xil texnik vositalar ko'magida jadval ko'rinishida ekranda namoyish qilishi, ularni o'quvchilarga ovoz chiqarib birgalikda o'qitishi yaxshi natija beradi.

O'qish jarayonida o'quvchi so'z oxiridagi qo'shimchani noto'g'ri o'qiganda va to'g'ri talaffuz qilganda *-ning* va *-ni* qo'shimchalarini aralashtirib yuborganda uni o'qishdan to'xtatmasdan xatosini yo'l-yo'lakay aytib to'g'rilab ketish mumkin. Lekin xato o'qish asnosida gap mazmuniga putur yetganda esa qayta o'qitish usulidan foydalaniladi. Bunda o'quvchiga o'qigan matnning xatoga yo'l qo'yilgan o'rni yuzasidan savol berilib diqqati qaratilsa, o'quvchi o'z xatosini payqaydi va e'tiborli bo'lib qayta o'qiydi.

3. Tez o'qish me'yoriy tezlikdagi o'qish bo'lib, bunda o'qish sur'ati matnning mazmunini tushunishdan ajralib qolmasligi kerak. O'qish tezligi matnni tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda o'sib borishi lozim. O'qilayotgan asar mavzusini o'zlashtirish, matn mazmunini ongli idrok etishni ta'minlaydigan o'qish tez o'qish deyiladi.

O'qish tezligi to'rt yil davomida to'g'ri va ongli o'qish bilan bog'liq holda asta ortib boradi. O'qish tezligini tekshirganda o'qituvchi o'qiladigan materialning xarakterini, ya'ni g'oyaviy-mavzuyiy murakkabligini, so'z va gaplarning tuzilishini, ularning bolalar nutqida qay darajada ishlatilishini, o'qishning to'g'ri va ongli bo'lishini hisobga oladi. O'quvchilarning o'qish tezligi har xil bo'ladi, albatta. O'qituvchining vazifasi boshlang'ich sinflardagi har bir o'quvchining o'qish tezligini standart talablariga moslashtirishdan iboratdir. O'qish sur'atini oshirishda tez aytishlar, she'rilar, maqollarni yod oldirish va matnni ovoz chiqarib o'qishni mashq qilish kabilar samarali usullardan hisoblanadi.

4. Ifodali o'qish badiiy-obrazli matnning xususiyatlarini anglagan holda adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilib o'qishni nazarda tutadi. Ifodali o'qish intonatsiya – ohang yordamida asarning g'oyasi va jozibasini to'g'ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. Ohang og'zaki nutqning birgalikda harakat qiluvchi elementlari: urg'u, nutq tezligi, to'xtam (pauza), ovoz past-balandligining yig'indisidir.

"Metodist" 2025-yil 2-son

Asarlarning, ayniqsa nazmiy bitiklarning badiiy-didaktik tahlili ularni ifodali o'qishga o'rgatish bilan bog'lab olib boriladi. Ifodali o'qishga o'rgatishda matn mazmunini tushunish, muallif hikoya qilgan voqealarga o'z munosabatini bildirish asosiy vazifa hisoblanadi. O'quvchilarda ifodali o'qish malakasini shakllantirish uchun asarni o'qituvchining o'zi ifodali o'qishi muhim ahamiyatga ega.

5. Ongli o'qish yaxshi o'qishning asosiy sifati hisoblanadi. Ongli o'qish o'qilgan matnning mazmunini anglash, asardagi yetakchi qarashlarni ajratish, undagi muhim bilan nomuhimni farqlash, obrazlar va badiiy vositalarning asardagi o'rni hamda ahamiyatini tushunib yetish, shuningdek, asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga o'z munosabatini ifodalay olish demakdir.

6. Ovoz chiqarib o'qish o'qilayotgan har qanday matnni baland ovozda, talaffuz me'yorlariga, ifoda qoidalariga rioya qilgan holda, til xususiyatlari, o'qish ritmi, to'xtamlar va boshqalarga amal qilgan holda o'zi yoki boshqalar uchun o'qishni nazarda tutadi. Bunga boshlang'ich sinflar o'qituvchisining darslarda biror matnni o'quvchilar uchun ifodali o'qib berishi yoki o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini mustahkamlash uchun amalga oshirgan mutolaasini kiritish mumkin.

7. Jamoa bo'lib o'qish asosan, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida matnlarni o'qituvchi bilan birgalikda barcha o'quvchilarning ovoz chiqarib mutolaa qilishlari nazarda tutiladi. Bunda o'qituvchi har qanday matnni avval o'zi ifodali o'qib beradi. O'quvchilar eshitish orqali badiiy bitikning ifodali o'qilish ohangini o'zlashtirib olganlaridan so'ng birgalikda amalga oshiriladi.

8. Individual o'qish har qanday matnning bir kishi tomonidan o'qilishini nazarda tutadi. Bunday o'qish sinfda, mustaqil tarzda, sinfdan tashqari o'qishlarda amalga oshiriladi. Individual o'qishning ovoz chiqarib o'qish, ichdan o'qish singari turlari mavjud. O'qirman ichdan o'qiganda asarning mohiyatiga kirishi yengil kechadi. Ovoz chiqarib o'qiganda o'quvchi diqqatining bir qismi ifodali o'qish talablariga rioya qilishga qaratiladi. Individual o'qishga xos bo'lgan har ikkala sifat ham o'quvchi uchun foydalidir.


9. Mustaqil o'qish o'quvchining o'z tashabbusi bilan amalga oshiriladigan o'qish turidir. O'qishning bu turi o'qish texnikasining

"Metodist" 2025-yil 2-son

avtomatlashganligi, leksik-grammatik ko'nikmalarning yuqori darajada shakllanganligi bilan xarakterlanadi. Bu xususiyatlar mustaqil o'qishda diqqatning shakliga emas mazmunga yo'naltirilganligi bilan izohlanadi. Zamonaviy metodik adabiyotlarda mustaqil o'qish ma'lumotni tanlab o'qish, asl mazmunni tushunib o'qish hamda matn mazmunini to'liq anglagan holda o'qish singari turlari keng tarqalgan. Mustaqil o'qishning sanalgan birinchi varianti zamirida izlanuvchi o'qish, ikkinchisida tanishuv o'qish va uchinchisida esa tadqiqiy-tahliliy o'qish nazarda tutiladi. Mustaqil o'qishning bu turlari o'qish maqsadidan kelib chiqqan holda ta'limiy o'qishlarning har xil variantlari sifatida xarakterlanadi.

10. Uyda o'qish ham o'qish shakllarining bir turi bo'lib, o'quvchilar tavsiya etilgan yoki o'zlari ixtiyor etgan matnlarni uyda, xohlagan vaqtlarida o'qiydilar. O'quvchilarning bunday o'qishlari natijalariga o'qituvchi darsda yoki sinfdan tashqari vaqtlarda e'tibor qilgani maqsadga muvofiqdir. Uyda o'qish uchun maxsus xrestomatiyalar, sinfdan tashqari o'qish uchun mo'ljallangan qo'llanmalar tavsiya etiladi.

O'qishning yana bir qator turlari mavjudki, ular ta'limning boshqa bosqichlari uchun bevosita ahamiyatlidir. Masalan:



1. Analitik o'qish ham o'qishning ta'limiy turlaridan biri hisoblanib o'qirman faoliyati matnning mohiyati, mazmuni va tuzilishini ochishga yo'naltiriladi. Analitik o'qishda o'quvchining diqqati matnning til xususiyatlari, tuzilishi va nutq komponentlarini aniqlashga qaratilgan holda jo'ngina qabul qilinishini nazarda tutadi. O'qishning bu turi sintetik o'qishga qarama-qarshi qo'yiladi. Kommunikativ ta'limda o'qishning har ikkala (analitik va sintetik) turi bir-birini to'ldirib keladi.

2. Sintetik o'qish tez, yugirak o'qish demakdir. Sintetik o'qish tez o'qish bilan birga lexisik va grammatik bilimlarning puxta egallanganligini, matndagi notanish so'zlarning mazmunini yo'l-yo'lakay anglab olinishini, har xil mayda tushunchalardan yaxlit bir fikr chiqara bilishni taqozo etadi. Analitik va sintetik o'qish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini taqozo etadi. O'qilganlarni uqish sintetik o'qishning har bosqichida muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim amaliyotida sintetik o'qishdan foydalanish uchun o'quvchilar grammatik materiallarni, o'qish ko'nikmasini, notanish so'zlarni matnning umumiy mazmunidan kelib anglab olish ko'nikmalarini yaxshi egallagan bo'lishlari lozim. O'quvchilarda sintetik o'qish ko'nikmasini shakllantirish uchun hamisha uyga o'qishga berilgan matnning ma'lum qismi sinfda tahlilga tortilgan bo'lishi va uzluksiz ravishda ularning mustaqil o'qishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Sintetik o'qish samaradorligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri matndir. Matn o'zlashtiriluvchan, ma'lumotlarga boy va mazmundor bo'lishi shart. Sintetik o'qish uchun taqdim etilgan matn analitik o'qishga berilgan matndan yengilroq, grammatik qoidalarga to'liq amal qilingan va kam miqdordagi yangi leksikaga ega bo'lishi kerak va hk. O'quvchilarning sintetik o'qishlari nazorat qilinganda asosiy e'tiborni matnning o'qilishi va o'qilganlarning tushunilganlik darajasiga qaratish maqsadga muvofiqdir.

3. Tanlab o'qish ma'lum maqsad yo'nalishiga qaratilgan o'qish turidir. Bu o'qishda nazarda tutilgan biror masala yuzasidan zarur ma'lumotlarni aniqlash, bu borada umumiy tasavvur olish maqsadida mutolaa qilish tushuniladi. Olingan ma'lumotlarga tayangan xolda o'qirman shu matn unga kerak-kerakmasligini

aniqlaydi. Bunda o'quvchi matnning sarlavhasiga, ichki sarlavhalarga, mundarijaga e'tibor qaratadi, alohida xatboshlar yoki ayrim jumalarni o'qish bilan kifoyalanaadi. Tanishuv o'qishi, izlanuvchi o'qish va tadqiqiy o'qishlar ham shu maqsad va faoliyatga asoslanadi.

4. Diskursiv o'qish ham analitik o'qishga xos xususiyatlar asosida amalga oshiriladi. Diskursiv o'qishda ham xuddi analitik o'qishdagidek o'quvchining diqqati matnning til shakli, tuzilishi va nutq komponentlarini aniqlashga qaratilgan holda qabul qilinishini nazarda tutadi. O'qishning bu turi ham sintetik o'qishga qarama-qarshi qo'yiladi. Kommunikativ ta'limda o'qishning har ikkala turi bir-birini to'ldirib keladi.

5. Tanqidiy o'qish ham kommunikativ o'qishning bir turi bo'lib, matn mazmunidagi qarashlar bilan o'qirmaning shaxsiy qarashlari, bilimi va hayotiy tajribalariga tayangan holda baholashi nazarda tutiladi.

O'qishning bunday turi matnni to'liq va aniq tushunilishi asnosida amalga oshiriladi. O'qishning bu turi o'qish malakasining yuqori darajada shakllanganligi, matn mazmuni, uslubi, til shakllarini tahlil qila bilish, o'qilganlarga tanqidiy nazar bilan qarash ko'nikmalari shakllanganligini taqozo etadi. Tanqidiy o'qish filolog talabalarining adabiyotshunoslik va matnshunoslik darslaridagi amaliy faoliyati hisoblanadi.

6. Lug'at bilan o'qish begona tilda yaratilgan matnlarni lug'atlar yordamida o'qish va mazmun-mohiyatiga kirishni nazarda tutadi. O'qishning bunday turi tarjimonlar, chet tillarni o'rganayotgan qiziquvchilarga xosdir. Bunday o'qishda o'qirman o'rganilayotgan tilga xos bo'lgan izohli lug'atlardan, ba'zan ikki yoki uch tillik lug'atlardan foydalanadi.

7. Filologik o'qish esa filologik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari talabalarining, adabiyotshunos-sinchilarning filologik yoki pedagogik yo'nalishdagi bilimlarni o'zlashtirish, biror badiiy asrni tahlilga tortish maqsadida amalga oshiriladigan o'qishlaridir.

8. Ekstensiv o'qish ham ta'limiy o'qishning bir turi. U lotincha "*extensivus*" so'zidan olingan bo'lib – kengaytirilgan, yoyilgan ma'nolarini anglatadi. Bunday o'qish ma'lum yo'nalishdagi hajman katta matnlarning umumiy mazmunini ilg'ab olish maqsadida

amalga oshiriladi. O'qirmaning diqqati matnning shakliga emas, mazmuniga qaratiladi, ya'ni sintez analizdan ustuvorlik qiladi. Ekstensiv o'qishda mazmunning mohiyatiga chuqur kirib uni o'zlashtirib olish emas, balki uni umumiy tarzda ilg'ab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'qish turi oliy filologik ta'limda talabalarining mustaqil o'qishlari va auditoriyada birgalikda muhokama qilish uchun tavsiya etiladi. Unda ma'lum maqsad asosida o'qilgan asarlarning muhokamasi, u bilan bog'liq yozma ishlarni uyushtirish kabi bir qator mantiqiy faoliyat nazarda tutiladi [1; 350-b].

Boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan sinfdan tashqari o'qishlarni o'quvchilarga xos bo'lgan o'qish ko'nikmalarining tez rivojlanishi va adabiy ta'lim samaradorligi asosidir. Kichik yoshdagi o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishlarini tashkil etishdan **maqsad** o'quvchida o'qish malakasini takomillashtirish bilan bir qatorda kitobni mustaqil o'qiy oladigan, uni tushunadigan, o'zini qiziqitirgan mavzularga oid kitoblarni tanlay biladigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qigan kitobini to'g'ri baholay oladigan ongli, faol kitobxon tarbiyalashga, o'quvchi shaxsida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarishga xizmat qilishdir.

Sinfdan tashqari o'qish darslarining asosiy **vazifalari** o'quvchida badiiy kitoblarni o'qishga havas uyg'otish, o'qigan kitoblari yuzasidan kundalik yuritishga o'rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish, o'quvchilarda ezigulik muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, ularning bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirishdan iboratdir. Sinfdan tashqari o'qish boshlang'ich adabiy ta'lim yoshidagi tarbiyalanuvchilarning bilishga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, havasini orttiradi.

Boshlang'ich sinflarning adabiy ta'limi samaradorligini ta'minlashda sinfdan tashqari o'qilgan asarlar ustida ishlash uchun dunyo miqyosida 1959-yildan boshlab alohida dars soatlari tashkil etilgan. Bunday darslar 1–2-sinflarda haftada bir marta, 3–4-sinflarda esa ikki haftada bir marta o'tkazilib kelingan. Amaldagi dasturga ko'ra, bunday darslar 1–4-sinflarda 2 haftada bir marta

o'tkaziladi. Savod o'rgatish jarayonida ham haftadagi oxirgi alifbe darsida sinfdan tashqari o'qilgan asarlar tahliliga alohida vaqt ajratilgan. Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar ustida ishlash uchun o'quv dasturida ham (haftada bir marta) vaqt ajratilgan [2; 21-b].

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishlarini amalga oshirishda har bir bolaga individual yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish talab etiladi. O'quvchilarda kitob ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash omilidir.

Quyidagi sinflar adabiy ta'limida o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishlari sinfda o'qish bilan uzviy bog'liqlikda uyushtiriladi. Sinfda o'qish sinfdan tashqari o'qish uchun zarur bo'lgan o'qish malakalarini shakllantiradi, o'quvchini o'qigan asarini tushunishga o'rgatadi, lug'atini boyitadi. Kichik o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishlari qiziqarli va o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, bolalarning bilimini boyitadi, ularga qiyoslash uchun material beradi. Kichik o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishlari ularda mustaqil kitob tanlash va o'qish ko'nikmalarini shakllantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sinfdan tashqari o'qish ko'nikmasini shakllantirish uchun bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqichi birinchi sinfning savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Unga darsning 17–20 daqiqasi ajratiladi va u "sinfdan tashqari o'qish ma'lumoti" deb yuritiladi.

2. Boshlang'ich bosqich birinchi sinfning ikkinchi yarim yilligiga to'g'ri keladi. Bu bosqichda haftada bir dars sinfdan tashqari o'qilgan asarlar ustida ishlashga ajratiladi.

3. Asosiy bosqich esa 2–4-sinflarga to'g'ri keladi. Bu davrda kichik kitobxonlarning o'qish malakalari ma'lum darajada mustahkamlanadi. Bunda o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qigan asarlari yuzasidan suhbatlar uyushtiriladi, bilim, ko'nikma va malakalari baholanadi.

Boshlang'ich adabiy ta'limdagi sinfdan tashqari o'qish bosqichlarida dastur talablari bilan birga o'quvchilarning qiziqishlari ham inobatga olinadi. Bu bosqichda sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlash tamoyillari boshlang'ich adabiy ta'lim metodikasi ilmining vazifalaridan biridir. Kichik o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishlari uchun kitoblar tanlash, ota-onalarga

"Metodist" 2025-yil 2-son

o'qiladigan adabiyotlar ro'yxatini tavsiya qilish, yillik o'quv rejasini va dars tuzilishi namunalarini ishlab chiqish, bularidan ota-onalarni xabardor qilish ham maqsadga muvofiqdir. Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

1. Tarbiyaviy maqsad ko'zda tutiladi.
2. Asarlar janri va mavzusining xilma-xilligi.
- Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar, asosan, hikoyalar, ertaklar, she'rilar, topishmoqlar, maqollarni o'qishga qiziqqanlari uchun shu janrdagi asarlar tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.
3. O'quvchilar yoshi va saviyasiga mosligi hisobga olinadi.
4. O'quvchilarning shaxsiy qiziqishi va mustaqil o'qishi hisobga olinadi.
5. Mavsumiy tamoyilga amal qilinadi.

Umuman olganda, kitobni to'g'ri tanlash sinfdan tashqari o'qishning muvaffaqiyatini ta'minlash shartidir. Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlikning asosiy shakli maxsus darslardir. Bunday darslar erkin dars hisoblanadi. Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar tahliliga bag'ishlangan darslarda kichik kitobxonlarning qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodiy qobiliyati rivojlanadi, faol kitobxonga xos ko'nikma va malakalar shakllanadi. Sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratiladi. Shu bois ularning qurilishi xilma-xil bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchining ijodi hisoblanadi, darsda qanchalik xilma-xillikka, hayotiylikka erishilsa, maqsadga erishish shuncha oson kechadi.

Boshlang'ich adabiy ta'lim metodikasi ilmda o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qigan asarlari ustida ishlash darslari o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishi uchun ma'lum talablarga bo'ysunishi ham taqozo etiladi:

1. Har bir darsda o'quvchilar o'qigan asarlar qayd etib boriladi. Kichik kitobxonlar o'qigan va o'qiyotgan kitoblarini sinfga olib kelib ko'rsatadilar, ikki-uch o'quvchi o'zlari o'qigan kitoblari haqida gapirib beradilar, darsda o'zaro fikr almashish muhiti yaratiladi. Bu holat darsdan tashqari vaqtda ham davom etishi mumkin.

2. Har bir darsda o'qish uchun yangi kitob (asar)lar tavsiya qilinadi. Tavsiya etish shakllari turlicha bo'lib, ular fikr almashuv,



"Metodist" 2025-yil 2-son

kitobni ko'rsatish, sinfda ko'rgazma tashkil etish, o'quvchilarni qiziqtirish uchun tavsiya qilinadigan kitoblardan parchalar o'qib berish, rasmlarini ko'rsatish yoki filmini namoyish etishdan iborat bo'lishi mumkin.

3. Sinfdan tashqari o'qilgan asarlarga bag'ishlangan darslarning ayrimlarida o'quvchilarga asarni yaxlit holda o'qitish mumkin. Agar asar hajmi kattaroq bo'lsa, bu ish ikki-uch dars davomida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar o'zlari o'qigan kitobdan biror parchani ovoz chiqarib o'qib berishlari ham mumkin. Bu jarayonda ichda o'qishdan ham, she'r yodlashdan ham, rollarga bo'lib o'qishdan ham foydalaniladi.

4. Kichik o'quvchilarga o'qish uchun kitoblarni targ'ib qilganda sinfdan tashqari o'qishga tavsiya qilinadigan asarlar ro'yxati sinfga yoki maktabning maxsus joyiga osib qo'yiladi, ular vaqti-vaqti bilan yangilab turiladi, to'ldiriladi, ko'rgazmalar tashkil qilinadi. Bu jarayondan ota-onalar ham xabardor bo'lishlari shart. O'qituvchi bu borada ham maxsus suhbatlar uyushtiradi.

5. Sinfdan tashqari o'qish yuzasidan bir qator ommaviy ishlar: adabiy ertaklar, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar uyushtiriladi, ular uchun maxsus tayorgarlik ko'riladi. O'quvchilarning o'qigan kitoblari yuzasidan sinfdan tashqari o'qish va sinfda o'qish darslarida, yakka tartibdagi suhbatlarda ham gapirib berishlari mumkin.

O'quvchilarga sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etiladigan asarlarning hajmi haqida adabiyot o'qitish metodikasida turlicha fikrlar bor. L. A. Sheymanning tavsiyasiga ko'ra II-IV sinflar o'quvchilari 5-20 (II sinfda 5-10, III sinfda 10-15, IV sinfda 15-20) va hokazo bet atrofida o'qishlari mumkin [5; 79-b]. Muallifning e'tirof etishicha, bular me'yoriy ko'rsatkichlar emas, balki taxminiydir.

Umuman, uyda har kuni kamida bir soat mobaynida biror kitobni o'qish inson ma'naviy kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Uzlüksizlik har kuni o'qish orqali ta'minlanadi. Shuningdek, masalaning boshqa qirrasini ham bor: hajmi kattaroq parchalarning dastlabkisida so'z o'rganishga e'tibor ko'proq qaratilsa, keyingilarida takror ishlatilish xususiyatiga ko'ra avvalgi leksika jadal o'zlashadi, notanish so'zlar esa kamayib boradi. Natijada asta-



"Metodist" 2025-yil 2-son

sekin matnlar ham hajman kattalashadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini haftada 2-3 kun bir soatdan badiiy asar o'qish bilan shug'ullanishga yo'naltirish kifoya qiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining sinfda o'qish darslari misolida bolalarni o'qishga yo'naltirishi, badiiy asarlarning mohiyatiga kirish yo'llarini o'rgatishi uning o'qituvchilik burchidir. O'qituvchi metodist S. Matjonovning quyidagi xulosalarini: *"Siz darsliklardan hayot va uning qonuniyatlari haqidagi bilimlar bilan tanishasiz, ularni aql kuchi bilan qabul qilasiz, xotiringizda qayd etasiz. Ammo bu bilim va xulosalar hissiyotingizga zararcha ta'sir ko'rsatmaydi.*

Badiiy asarni o'qiganda sizdagi bu "loqaydlik" faol munosabatga almashinadi. Qalbingiz cheksiz shodliklarga chulg'anadi – ruhlanasiz, g'azablanasiz, iztirob chekasiz. Chunki u qalb dardi tufayli yaratilgan, dard esa suhbatdoshni bafarq qoldirmaydi" [3; 11-b].

"Ilmiy asarlar g'aflat va jaholatdan qutqarsa, badiiy asarlar dag'allik va razolatdan xolos etadi. Unisi ham, bunisi ham kishilarning ma'rifati, baxt-saodatli bo'lishi uchun bab-baravar foydali va zarurdir [3; 37-b].

"Badiiy asarni o'qish o'zicha hali hech narsani anglatmaydi. Eng muhimi, nimani o'qish va o'qiganni qanday tushunishdir. Demak, kitobxonlik – o'qilgan kitoblarni soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o'qish, ya'ni maqsadli o'qishdir" [2; 26-b.] tinimsiz ravishda takrorlab ularning ruhiyatiga joylab qo'yishi boshlang'ich adabiy ta'limning maqsadiga erishish garovidir.

Xalqning fikrini uyg'otish, ko'zini ochish, atrof olam, jamiyat va o'zi to'g'risida o'ylab ko'rishdan tashqari, ommani faoliyatga undash, harakatga da'vat etish kabi ijtimoiy-siyosiy funksiyalarning barchasini adabiyot amalga oshirishi mumkin. Hamma zamonlarda ham badiiy asarda ijtimoiy munosabatlar, turmush muammolari, ro'zg'oriy yumushlar ham aks ettirilgan. Chunki, odam ijtimoiy mohiyatga ega va ijtimoiylashgandagina o'zini namoyon eta oladigan yaratiq sifatida shunday munosabatlar qurshovida bo'lishga, binobarin, adabiyot ham insonni shunday muammo-munosabatlar og'ushida tasvirlashga mahkum. Har qanday katta-kichik hayotiy muammoga inson ko'ngil holatini



"Metodist" 2025-yil 2-son

anglatish, uning ruhiyati tovlanishlarini tasvirlash vositasi sifatida qaralsa, adabiyotning asl tabiatini anglash mumkin bo'ladi.

Keyingi paytlarda ziyolilar orasida "yoshlar kitob o'qimay qo'ydi" degan fikr hukmronlik qilib qoldi. Buning o'ziga yarasha asoslari ham bor, albatta. Ya'ni bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish asnosida nafaqat mamlakat siyosiy-ijtimoiy hayotida, balki fuqarolar ma'naviyatida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mustaqil ong, yangicha tafakkur tizimi shakllanib ulgurmay jamiyat ahli ruhiyatida ma'lum bo'shliq yuzaga kelib qoldi. Qolaversa, mamlakatda imloning o'zgarishi ham bu jarayonga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Shu sabab millat ma'naviy taraqqiyotida kamida o'n yillarga kechikish sodir bo'ldi. Yana shuni ham tan olish kerakki, kechagi jamiyatda ham hamma kitob o'qiyvermagan. O'qiydigan oilalarda, garchi ular kam bo'lsa-da, hamisha o'qilgan, o'qilyapti, o'qiladi.

Bolalarni ko'rkam asar o'qishga qiziqtirish, badiiy so'zni tuyish, undan ta'sirlanish va zavq ola bilishga yo'naltirish ularning ko'ngillarini injalashtiradi, tabiatini tozalaydi. Ko'pchilik ota-onalar, ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, hatto millat ziyolilari yosh avlodda badiiy kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni saqlab qolish va uni yanada rivojlantirish yo'lida qayg'urmoqda.

Badiiy asar qog'oz-kitob ko'rinishida bo'ladimi, elaktron shaklda o'qiladimi, bundan qat'i nazar uning beradigan ma'naviy ozuqasi o'zgarmaydi. Ayonki, kichik yoshdagi har qanday bolaning ruhiyatida ertak eshitishga moyillik bor. O'qituvchi sog'lom fikrlaydigan ota-onalarga Eynshteynning: *"Bolangiz yaxshi odam bo'lishini istasangiz kitob o'qib bering. Bolangiz yanada yaxshiroq odam bo'lishini istasangiz, yanada ko'proq kitob o'qib bering"* [5], - degan iqrorini yetkazishi, ularning har kuni bolasiga kitob o'qib berishiga erishishi bolalarda kitobga muhabbat hissini uyg'otishdagi dastlabki qadami bo'ladi.

Yosh avlod ma'naviy takomilini ta'minlashda maktab adabiy ta'limining har bosqichida badiiy asarlarni didaktik tahlilga tortish, kitobdan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish, buni metodik jihatdan to'g'ri tashkil eta bilish ta'lim muassasalarida tarbiyachi va o'qituvchilarning, oilada esa ota-onaning burchidir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азимов Э. Г., Шукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения яз.). – Москва: "ИКАР", 2009. – 548 с.
2. Boshlang'ich ta'lim: ona tili, o'qish, matematika fanlaridan o'quv dasturi (1–4-sinflar). – T.: 2017. – 44 b.
3. Матжон С. Китоб ўқишни биласизми? – Т.: 1993. 211 б.
4. Матжон С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. (Ўқитувчилар учун методик қўлланма). – Т.: "Ўқитувчи", 1996. 357 б.
5. Шейман Л. А. Стимулирование самостоятельного чтения школьников. – Фрунзе: «Мектеп», 1987. – 479 с.
6. <https://www.ekogazeta.uz/xabarlar/728>

ADABIY TA'LIMDA DRAMATIK VA LIRIK ASARLAR BILAN ISHLASH METODIKASI (2-qism)

Qozoqboy YO'LDOSHEV
ToshDO'TAU professori
Pedagogika fanlari doktori
El-manzil: qashqirli@mail.ru



Annotatsiya. Umumta'lim maktablarining adabiyot darslarida xalq og'zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy adabiyot bilan bir qatorda chet el adabiyotining durdona asarlari ham o'rganiladi. Ayni zamonada, o'rganiladigan o'quv materiallarining janr xususiyatlariga ham alohida diqqat qaratiladi. Prof. Q. Yo'ldoshev tadqiqot ishidan olinib o'qituvchilarga havola etilayotgan ushbu maqolada Shekspirning "Shoh Edip" tragediyasi, Zulfiyaning "Oydinda" va Cho'ponning "Go'zal" she'rlarini o'rganish metodikasi borasida so'z yuritilgan. Maqolada olimning bu boradagi metodik qarashlari qisqartirilgan holda tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: tragediya, badiiy tasvir tarixi, peripetiya, xato, ayb, gunoh, badiiy matn, g'oya, tuyg'ular tasviri, o'xshatish, obrazli ifoda.

Annotation. In the literature lessons of general education schools, alongside folk oral creativity, classical and modern literature, the masterpieces of foreign literature are also studied. At the same time, particular attention is paid to the genre characteristics of the materials being studied. In this article—drawn from Professor Q. Yo'ldoshev's research work and presented to teachers—there is a discussion on the methodology of studying Shakespeare's tragedy Shoh Edip, as well as Zulfiya's poem "Oydinda" and Cho'pon's poem "Go'zal." The scholar's methodological views on this topic are offered here in a condensed form.

Keywords: tragedy, history of the artistic image, vicissitudes,

mistake, guilt, sin, literary text, idea, depiction of feelings, comparison, figurative expression.

Аннотация. На уроках литературы общеобразовательных школ наряду с народной литературой, классической и современной литературой изучаются жемчужины зарубежной литературы. При этом особое внимание уделяется жанровым особенностям учебных материалов. В данной статье, которая взята из научно-исследовательской работы проф. К. Юлдошева и обращена к преподавателям, рассматривается методика изучения трагедии Шекспира «Король Эдип», стихотворений Зулфи «Ойдинда» и «Гүзал» стихотворений Чулпана. В статье рекомендуется лишь краткий обзор методических взглядов ученого на данную тему.

Ключевые слова: трагедия, история художественного образа, перипетии, ошибка, вина, грех, художественный текст, идея, изображение чувств, сравнение, образное выражение.

(Boshi o'tgan sonda) Tragediya markazida Edip obrazi turadi. Edip – azaldan bezovta va g'amgusor qalb sohibi. U hech qachon sha'niga dog' tushiradigan ish qilmagan va shu bois: "Mening dilimdagi mudom tilimda," - deysigsha haqli. O'zga yurtdan kelib, taqdirning xohishi va o'zining tadbirkorligi tufayli bu yurtga shoh bo'lgan Edip qonuniy shoh Lay o'limida o'zining hech qanday ishtiroki yo'qligiga ishonadi. Shuning uchun ham marhum Lay tomonidan noma'lum qotilga qarshi: "Mayli o'zim bo'lay xuntalab o'g'li", - deydi. Shunday odamga avliyo Tiresiyning: "Yurtga bu ofatni keltirgan – sensan", degan da'vosi dahshatli adolatsizlik bo'lib tuyulishi tabiiy, albatta.

Sofokl badiiy tasvir tarixida birinchi marta peripetiya deb ataluvchi usuldan foydalanadi va yuksak badiiy natijaga erishadi. Badiiy asar qahramonlari harakatlarining ular istagiga mutlaqo zid natija berishi tasviri usuli peripetiyaadir. Edipning ko'nglida "Layning halokatiga chindan ham aloqam yo'qmikan" degan shubhani yo'qotish uchun qilgan har bir harakati, aksincha, shohning gumonini kattalashtirib, uning qotilligini ayonlashtirib

boraveradi. Ilokasta tilidan Layning chorrahada o'dirilganini eshitganda, Edip ko'nglida shubha jinday tomir otadi. Voqealarning bundan keyingi rivoji mazkur shubha urug'ining tez ko'karib, mevalar berishiga imkon yaratadi. Kutilmaganda, o'zining Lay qotili ekanini bilib ayovsiz azob iskanjasida qolgan Edip boshiga tog'dan ham og'ir falokat yog'iladi: u o'z otasini o'dirgan padarkush, o'z onasiga uylangan zinokor va undan farzandlar ko'rgan badbaxt kimsa ekan!

Ayni Edipning, bir zamonlar Fivani balolardan xalos etgan shohning gunohlari tufayli yurtga ofat yog'ilishi va ofatlar sababchisini izlayotgan kishining o'zi sababchi bo'lib chiqishi asnosida Edip shaxsiyatiga xos yorqin va go'zal jihattlar inkishof etiladi. Cho'pon bilan suhbat jarayonida vaziyatning og'irlashayotganini, haqiqatning oydinlashuvi uning zarariga bo'lishini bilsada, Edip cho'ponga: "Evoh, sen aytishing, men tinglashim shart", - deydi. Bu o'rinda Edip taqdir qarshisida ojiz, lekin insof va adolatga sodiq bir shaxs sifatida gavdalanadi. Uning har bir gapi qanchalik azoblanayotganligini yorqin ko'rsatadi. Shohning hayot yo'llariga kiritgan har bir aniqlik uning yuragiga qadalgan xanjar kabi ta'sir etishi va buning dahshatli og'rig'i juda ishonarli tasvirlangan.

Edip – o'zini ayaydigan kishi emas. U – o'zlikni yenggan, manfaatidan ustun tura biladigan buyuk inson. Ayni vaqtda, Edip – tirik odam. Oddiy banda. Shu bois qo'rqadi, ikkilanadi. Shohning lokastaga qaratga: "Shubham borki, avliyo ko'r emas", "Qo'rqaman, ortiqcha gapirvordim," - deya qilgan iqrorlarida uning shu xislatlari namoyon bo'ladi. Edip shaxsiyatiga xos yetakchi fazilatlar: halollik va vijdonlilik. Tabiatidagi boshqa sifatlar uning shu fazilatlariga tobe. Shuning uchun Edip shiddat bilan o'zini fosh etuvchi haqiqatning tagiga yetadi. Bu haqiqat – o'limdan-da og'ir, sharmandalikdan-da kir. Edipday inson shu holat bilan kelishishga majbur. Buyuk sanaluvchi insonning naqadar ojiz ekani mazkur holat tasvirida butun ayanchli jihatlari bilan namoyon bo'ladi:

*Tamom, bari ayon! O, yorug' jahon,
So'nggi bor ko'rmoqda ko'zlarim seni.
Hayot harom, nafas harom, nikoh harom menga,*

"Metodist" 2025-yil 2-son

Qonga bulg'anganman, jirkanchman, jirkanch!

Haqiqat onlarinining butun dahshati o'zining nihoyasiz zalvori va cheksiz ko'lami bilan kishini bosadi. Ediv – yirik shaxs. Shu bois o'zini gunohiga yarasha jazoga torta biladi. Qismat tufayli qilingan gunoh uchun o'z ixtiyori bilan ajr beradi: ko'zlarini ko'r qiladi! Jazoning salmog'i ham gunohning ko'lamiga yarasha. Ediv tushgan sharoitda o'lish – qutulish, yashash – jazolanish demak. Azob insonni g'ussaga olib keladi, g'ussa chekish poklanish yo'lining boshlanishidir. Ediv adoqsiz poklanish sari yo'l oladi. Edivning o'ziga bergan jazosi lahzalik qaror natijasi emas. Halol va vijdonli odam aqli va tuyg'ularining hukmidir:

*U dunyoda otam-onam yuziga
Qanday boqdim – ko'zlarimni o'ymasam?
Badbaxt onam mendan tuqqan bolaga
Qanday boqdim – ko'zlarimni o'ymasam?
..Yurtga qonli dog' tushirgan qotilni
Yo'q qilishga o'zim farmon berganman.
Endi esa fuqaroning ko'ziga
Kanday boqdim – ko'zlarimni o'ymasam?
Yo'q! Bu ham kam. Qo'lim bo'lsa baquvvat..
Qulog'imning pardalarin yirtardim..*

Ediv qiynoqlardan zorlanmaydi, yengillik bo'lishini xayol ham qilmaydi. U – so'nggi damgacha yurt qayg'usi bilan yashay oladigan inson. Shu sabab oxirgi damda:

*Men badbaxt boshimni olib ketaman,
Toki xudolarning qahruga'azabi*

yurtimga yog'ilmasin, deya fivaliklarni ofatlardan xalos etishga urinadi.

Asardagi boshqa qahramonlar ham fojijanavis tomonidan juda puxta ishlangan. Xususan, lokasta, Kreont, Tiresiy obrazlari badiiy barkamolligi tufayli hanuzgacha ham estetik qimmatini yo'qotmay kelmoqda.

24

"Metodist" 2025-yil 2-son

Iokasta – oddiy ayol. Onaga, ayolga, xotinga xos barcha xususiyatlar unga ham begona emas. Iokasta ham hamma ayollar singari, avvalo, ro'zg'orining tinch, yaqinlarining betashvish bo'lishini istaydi. Uning uchun oliy haqiqatga yetishdan ko'ra, oila butunligini saqlab qolish muhimroq. Elchi bilan Edivning suhbatidan erining aslida kim ekanini erkaklardan oldinroq sezib qolgan farosatli Iokasta: "Bari bir emasmi? Muncha yonmasang.." deya iltijo qiladi. Eriga qarata: "Bilmaganing yaxshi zotingni, sho'rlik!" deb yozg'irganda ham, butun haqiqatni bila turib, sir bermay, Ediv va elchi yonidan ketib qolganida ham chinakam ayol, mehribon xotin sifatida namoyon bo'ladi. O'z o'g'liga xotin bo'lganini, bolasidan farzandlar tuqqanini bilgan Iokasta bir ayol qilishi mumkin bo'lgan ishini qiladi: o'zini osib qo'yadi. Iokasta shaxsiyati Ediv shaxsiyati singari ko'lamdor emas. Shu bois ham u Ediv singari chora ko'rishi yoki so'nggi damda yurt tashvishini o'ylashi mumkin emasdi. Sofokl bu holni buyuk san'atkorlik bilan ifoda eta bilgan.

Dramaturg qahramonlari ruhiyatini eng nozik jihatlarigacha bexato ko'radi va yorqin tasvirlay biladi. Sir ochilgach, Iokastani izlayotgan Edivning holati shunday tasvirlanadi:

*Tig' so'rab kimnidir surishtirdi u,
Qani xotinim, deb ayta olmasdi,
Ayta olmas edi, qani onam deb...*

Edivning Kreontga qarata: "Uni.. Uydagini.. o'zing dafn etgil, O'zing bil.. bu sening qondoshlik burching" - deya qilgan iltimosida qahramon vujudidagi adoqsiz g'am, cheksiz hijolatlik juda ingichka, nozik tasvirlanganki, bu satrlarning yigirma besh asr oldin bitilganiga odam ishonmaydi.

Ayni bir holatdan bir-biriga zid ikki xil ma'no chiqarish, bir vaziyatdan qarama qarshi xulosalarga kela bilish "Shoh Ediv" asarida yuksak san'at darajasida hal etilgan. Edivning qizlari bilan xayrlashuvi sahnasi bu jihatdan aqlni lol qoldiradi:

*Qaydasiz, qizlarim, yaqinroq keling..
Ilk bor aka bo'lib... qo'l cho'zay sizga.*

25

"Metodist" 2025-yil 2-son

*..Yoningizda turgan shu badbaxt ota
Ko'rmasdan, bilmasdan... sizni olamga
Keltirib qo'ydi-ku...o'z onasidan..
Otangiz – padarkush, onangiz esa -
Sizni o'z o'g'lidan tuqqan qabohat.*

O'z qizlariga aka bo'lib qo'l uzatishga, onasidan farzand ko'rishga majbur bo'lgan odam qismatining dahshati o'quvchilar vujudini larzaga soladi.

Sofokl mazkur tragediya orqali odamlarga nasihat qilmoqchi, yo'l ko'rsatmoqchi emas. U asaridan xulosa chiqarishga ham hech kimni undamaydi. Lekin badiiy haqiqatning dahshatli qudrati o'quvchini o'yga toldiradi. Sofokl hayotning murakkabligi, inson taqdirining chigalligini butun shafqatsizligi, go'zal va jirkanch taraflari bilan ko'rsatib bergan. O'zini dunyoning xo'jasi deb hisoblovchi odam, aslida, o'z qismatiga ham xo'jayin bo'lolmasligi haqqoniy aks ettirilgan. "Shoh Ediv" fojiasining mohiyati inson umrining, u erishgan martabalarining o'tkinchi ekanligi, odam umri imtihon uchun berilganini anglatishda namoyon bo'ladi. Bu asar kishini o'zi, o'zgalar, odam, olam haqida o'ylashga undaydi. Edivni qanday baholash kerak? Qanday odam o'zi? Fojia kitobxonni ta'sirlantirish, tuyg'ularini junbushga keltirish yo'li bilan o'ylashga majbur etadi. O'ylash esa buyuk ne'matdir. Kamolot yo'lidagi birinchi bekatdir.

...Badiiy matn adabiyot o'qitishning asosiy tadbiri bo'lib qolar ekan, o'qituvchi adabiy asarning estetik jozibasini ochish yo'lini topar va bu yo'ldan o'z o'quvchilarini olib o'tar ekan, adabiyot darslarida olijanob insoniy fazilatlar shakllantirish mumkin bo'laveradi. Adabiyot darslarining joziba kuchi, o'quvchilarni jalb etish va ularga ta'sir ko'rsatish quvvati ortib boraveradi.

O'ta ahamiyatli g'oya, juda qimmatli fikr ham amaliyotga tatbiq etilgandagina biror salmoqqa ega bo'ladi. Ba'zan hayotiy ekanligini ko'rsatib inson faoliyatining biror sohasiga keng yoyilib ketadi. Ba'zan qanchalar jozibali, dardli bo'lmasin turmush sinovlariga dosh bera olmay, unutiladi.

..Namuna sifatida taklif qilinayotgan ishlanmalar o'qitish amaliyotida ko'pchilik o'qituvchilar tomonidan murakkab deb

26

"Metodist" 2025-yil 2-son

hisoblanadigan mavzular yuzasidandir. Negaki, murakkab muammolarning soddada yechimini tavsiya eta biladigan metodikagina istiqbolli va yashashga haqlidir.

Milliy adabiyotimizda lirik janrlardagi asarlar ham murakkabligi nuqtayi nazaridan, ham miqdori jihatidan muhim mavqega ega. Cho'lponning mashhur va tahlilga bo'y berishi jihatidan eng murakkab bo'lgan "Go'zal" asarini o'rgatish metodikasini quyidagicha ko'rish mumkin.

She'r, avvalo, o'qituvchi tomonidan yoddan ifodali o'qiladi. U shunday o'qilishi kerakki, she'r bolalarning tuyg'ulariga bevosita tegib o'tsin. Toki, shoirning hissiyot olami o'quvchilar nazarida ro'y-rost gavdalansin. She'r maromiga keltirib o'qilgach, bir oz sukut qilinadi: o'quvchilarga eshitgan ilohiy ifodalarning lazzatini uzoqroq tuyish imkonini beriladi. So'ng tahlilga kirishiladi. Ochiq aytish kerakki, she'riyatning asl namunalarini tahlil qilish g'oyat mushkul. Chunki chinakam she'rda odamzod oddiy til bilan ifodalay olmaydigan tuyg'ular, ruhiy holatlar aks etadi. Bu tasvirlarni oddiy muloqot tili darajasiga tushirish asar jozibasini yo'qqa chiqarish demakdir. Shuning uchun Cho'lpon she'rларini tahlil etishda qissadan hissa chiqarishga, "shoir mana bunday demoqchi", "ana unday xulosa chiqaryapti" tarzidagi hukmlarni bayon qilishga oshiqmaslik kerak. Cho'lpon asarlarida o'gitbozlik yo'q, ularda ruhiyat manzaralari, inson hissiyotining zumlik to'lg'onishlari aks ettirilgan.

Nihoyat ishq otashida kuyib qorong'u kechadan kunduzga qadar bedor yurgan oshiq olamni munavvar etgan Kun – quyoshga murojaat aylaydi: "*Ulda o'z o'tidan bekinib, qochib, Aytadir: bir ko'rdim tushdama, o'ngda. Men o'ngda ko'rganda shunchalar go'zal, oydanda go'zaldir, kundanda go'zali!*" Astoydil izlagan topadi deganlaridek, Kun ham ul malakni birgina bor ko'rishga muyassar bo'lgan. Lekin o'sha birgina uchrashuv uning oshiq bo'lishi, o'zini unutar darajaga kelishi uchun yetarli. Mazkur bandda: "*Ulda o'z o'tidan bekinib, qochib...*" misrasiga yashiringan ma'no o'quvchilar e'tiboridan aslo chetda qolmasligi kerak. She'riy organizmdagi eng kichik o'zgarhaliklarni payqay olish uni tushunish sari olib boradigan eng to'g'ri yo'ldir. Quyoshga tik qarab, uni ko'rib bo'lmasligi o'quvchilarga juda yaxshi ma'lum. Buni shoirnana

27

"Metodist" 2025-yil 2-son

iste'dodgina: "...o'z o'tidan bekinib, qochib" tarzida ifoda qila olishi mumkin. Kun falakda suzib yuribdi. Unga tik qarashingiz bilan ko'rinmay qoladi. Chunki ko'zingizni oladi. Shu bois quyosh o'z o'tidan bekinib, qochibgina muloqotga kirishadi.

Yulduz, oy, shamol, kun timsollari yordamida lirik qahramon qalbidagi ishq o'ti alangasi nechog'lik balandligi, hijron azobining qanchalar og'irligi ochiladi. Charx urib, faryod chekib olamdagi eng muqaddas narsasini – dardini, ishqini izlayotgan oshiq nolasi o'quvchi qalbidagi ham aks-sado beradi.

She'ring so'nggi bandi to'lig'icha lirik qahramon ruhiy holatining, kechinmayu kayfiyatining ifodasidan iborat. Hajr yo'lida o'tanayotgan oshiq go'zaldan yozg'irmaydi. Chunki asl tuyg'u minnatdan yiroq bo'ladi. U visol ta'masini ham xayol etmaydi. Oshiq ishqning o'zidan masrur, dard chekish baxtidan mag'rur. Shu bois, "boshini zo'r ishga berib" qo'rganidan pushaymon emas. Mislisiz muhabbati va o'tanishlari evaziga hech narsa kutmaydigan chin oshiq ruhiy dunyosining nurli to'lg'anishlari aks etgan "Go'zal" she'rini shu tariqa tahlil qilish uning jozibasini o'quvchilarga to'laraq, ta'sirliroq yetkazish imkonini beradi.

"Go'zal"da shoir tabiatning juda dilbar she'riy manzarasini yaratgan. Lekin u tabiatdan nusxa ko'chirmagan, o'ziga chiroyli tuyulgan lavhasini shu holicha tasvir etmagan. Cho'lpon tabiatning tasviriga hamisha inson ruhini singdiradi, insoniy hissiyot tabiat go'zalligiga jon bag'ishlaydi. Uni dard bilan, odamiy ishq bilan munavvar qiladi. Shoir izlayotgani go'zalni, dastavval, "Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib, Eng yorug' yulduzdan..." so'raydi. O'qituvchi tahlilning ibtidosidanoq, o'quvchilarni shoir hissiyoti olamiga yaqinlashtirishga urinishi darkor. Nega lirik qahramon go'zalni "qorong'u kechada" izlay boshladi? Nima sabab ma'shuqasini "eng yorug' yulduzdan" so'radi? O'quvchilar she'r matniga tayanib, bu savollarga javob topishga uringanlari sayin asarning joziba kuchi ortib boraveradi. Ishqqa muhtalo bo'lgan qalb egasiga uyqu begona. Hazrati Navoiy aytganlaridek, "Beishq ulusga kom uyqu, Ishq ahlig'adir harom uyqu". Shu bois "Go'zal"ning lirik qahramoni-bedorlik bandasi. Bedor odam, qalbiga ishq oshyon qurgan dardmand o'ziga dardkash izlashi tabiiy. Lekin ishqday mahram tuyg'uni bo'lak odam bilan

"Metodist" 2025-yil 2-son

o'rtoqlashib bo'lmaydi. Shuning uchun lirik qahramon uyqusiz tundagi hamrohlari: osmon jismlariga, eng yorug', eng yaqin yulduzga murojaat qiladi va bu holat - ishonarli. Har holda, Cho'lponning lirik qahramoni, avvalo, yulduzga murojaat qilib notabiiy yo'l tutmaydi.

Endi o'quvchilar yulduz ne bois go'zalni o'ngida emas, "tushda ko'r" gani haqida o'ylab ko'rishlari kerak. O'zbek go'zali G'arbning tunkezar sohibjamollaridan emaski, kechasi paydo bo'ladigan mavjudotlarning ko'zi tushsa. Yulduz malakning ta'rifini eshitishi, eshitganlari tufayli tushlaridagina ko'rishi mumkin. Shu vajdan "eng yorug' yulduz" malakni faqat tushida ko'rgani tabiiy holl! O'qituvchi yulduzning e'tirofiga bolalar e'tiborini qaratishi kerak: "Tushimda ko'ramen: shunchalar go'zal, Bizdanda go'zaldir, oydanda go'zal!" O'quvchilar e'tibor qilishsin: lirik qahramon ma'shuqasini bitta "eng yorug' yulduzdan so'ragan edi. Lekin yulduz: «Bizdanda go'zaldir..." deya javob bermoqda. Nima uchun? Negaki, bitta yulduz qanchalar porloq bo'lmasin osmon ko'rki bo'la olmaydi. Ko'kning bezagi - osmon to'la yulduzlardir. Ularning go'zalligi: ko'pligi va tartibsiz tartibida! Buni "eng yorug' yulduz" yaxshi biladi. Shoir she'rdagi juda mayda detallargacha g'oyat katta e'tibor bilan ishlagan.

Yulduzdan qoniqarli javob ololmagan lirik qahramon nigohini "oy chiqqan yoqqa" olishga majbur. Oy unga: "...bir qizil yanoqqa, Uchradim tushimda ko'milgan oqqa", - deb javob aylaydi. O'quvchilar oyning tushidagi malak ne bois oqqa ko'milganini ancha oson izohlay bilishadi: go'zalni tushida bo'lsada, ko'rmoq uchun nazar tashlagan Oydan mayin, sutday nimtatir oq rangli nur taraladi. Taraladiyu, yerdagi malakka ham tushib uni oq og'ushiga oladi. Bundan tashqari, Sharq estetikasida oq – ezgulikni ifodalovchi rang. Go'zal, garchi uni oy o'ngida ko'rmagan bo'lsada, albatta, oq kiyingan bo'lishi kerak. Oq yuzli malakning oppoq libosi Oyning oydin nuri bilan qo'shilib tengsiz malikani oqqa chulg'aydi. Bu juda tabiiy. She'rda "qizil yanoq" sifatlashi ham ishlatilgan. Sharq odami uchun qizil yanoq ham sog'lomlik, ham go'zallik belgisi. Shuning uchun ham oyning tushida namoyon bo'lgan malak qizil yanoqli. Buning ustiga, go'zalning qizil yanoq'i tasviri she'rning

"Metodist" 2025-yil 2-son

keyingi bandida quyoshning yondiruvchi qizilligini asoslovchi mantiqiy-hissiy sista.

Sirli go'zalni so'roqlab tong ottirgan oshiq yorini "erta tong shamolidan" surishtirmay iloji yo'q. Tong nasimi tengsiz malakni tushida emas, o'ngida ko'rgan. Lekin bu baxtiyor visol unga "bir" martagina nasib etgan. Uning sarosar kezmog'i, huriliqoga telbavor oshiq bo'lmog'i uchun o'sha birgina yo'liqish kifoya: "...bir ko'rib, yo'limdand ozib, tog'u toshlar ichra istab yuramen!" Sirli go'zalning tong shamoliga o'ngida yo'liqish sababini o'quvchilar endi ancha oson izohlaydilar: o'zbekning dilbar qizlari saharxez bo'lishadi. Nechog'lik ehtiyot bo'lmasin, sirli malak biror marta tong nasimining nigohidan qutulolmay qolgan bo'lishi mumkin...

...Shoira Zulfiyaning ham "Oydinda" deb ataluvchi nozik ishoralarga, ingichka ifodalarga boy ichkin bir lirik she'r'i bor. Bu she'r sof tabiat lirikasining namunasidir. Odatda, bizning o'qituvchilarimiz peyzaj asarlarni tahlil qilishga qiynalishadi. Chunki amaliyotda har qanday asardan, avallo, "mazmun" deb ataluvchi g'oya qidirishga o'rganib qolingan. Go'zallik tasvirining o'zi g'oyaga, mazmunga aylangan badiiy asarlarni qabul qilish tarzi ham, uni talqin etish yo'sini ham metodikada ishlanmagan.

"Oydinda" she'rini tahlil etishga urinib ko'raylik. She'rda oxir ko'klam yomg'iridan keyingi tunlarning birida sanoqsiz yulduzlar charaqlagan osmon, olamni oqlikka o'ragan oy, xayol kabi to'zg'igan bulutlar go'zalligidan hayajonga tushgan shaxs kechinmalari, hayratlari aks ettirilgan. Bu she'rda bo'rtib turgan ijtimoiy ma'no ham, dardkash qalb iztiroblari ham yo'q. Unda beqiyos ilohiy go'zallik va shu go'zallikdan hayratlanayotgan masrur qalb entikishlarigina bor, xolos. Avval aytilganiday, o'qituvchi she'rni yoddan o'qib beradi. So'ng o'quvchilarni shoiria holatini his etishga tayyorlaydi. Lirik asardagi kayfiyatni yuqtirmaslik, emotsional beta'sirlik she'rni tushunarsiz so'zlar uyumiga aylantirib qo'yishi mumkin.

*Jilib-jilmas to'lin oy,
Bulut xayolday yengil,
Oy anhorda qulun toy,
Gilosda shig'il-shig'il...*

"Metodist" 2025-yil 2-son

Anhor tinimsiz o'ynoqlab oqadi, suvi tip-tiniq, shu bois unda his etayotgan Oy qulunday yugurik. Yomg'ir tufayli toza chayilgan gilos mevalarining har birida bittadan to'lin Oy jilva qiladi, shu bois "gilosda shig'il-shig'il". Hovuz tiniq suvga to'la, ammo u oqmaydi, shu bois ko'kdagi oy bir hovuz "yaxlit oynaday bo'lib" yoyilgan, hovuzdagi oyni yaxshiroq ko'rmoq ilinjida egilgan lirik qahramon boshqa bir oyga – o'ziga "ro'baro" keladi. Chunki u ham oyday go'zal. Shoira shohona kiyingan malika yanglig' "ming-ming yulduzni sidirg'asiga chayqab" yerga sudrab bermoqda: tiniq osmonning hovuzdagi aksida sanoqsiz yulduzlar lirik qahramonning kiyimlariga tikilgan bezaklar kabi tuyuladi. O'quvchilar moviy ko'kni kiyim qilib, undagi yulduzlardan bezak taqib ketayotgan sohibjamolni ko'z oldirlariga aniq keltirishlari mumkin.

O'qituvchi she'rdagi go'zal o'xshatishlar, kutilmagan obrazli ifodalarni ko'rishga, tushunishga bolalarni o'rnatib borsa, ularning oldida go'zallikning hadsiz dunyosi ochiladi. O'quvchilar "*Sel unutgan ko'lmaklar Misli oyning singani*" misralaridagi chiroyli o'xshatishni payqashdan tashqari "sel unutgan ko'lmak", "singan oy" tarzidagi obrazli ifodalar haqida o'ya tolislari, bu tasvirlarning tagiga yetishga intilishlari kerak. Samimiy tuyg'ular ifodasi bo'lmish she'rdan hayratga tusha oladigan, chinakam she'riy satrlar bag'ridagi sehnri his qilishga qodir bolalarning ma'naviy olamini shakllantirish adabiyot o'qituvchilari oldidagi asosiy vazifadir.

She'rning qolgan bandlari ham o'qilgandagi taassurot yo'qolmay turib, shu tariqa, tahlil etila boradi. Shunda o'quvchilarning tuyg'ulari o'tkirlashadi, kechinmalari noziklashadi, olam hodisalariga boshqacharoq qaray boshlashadi. Dunyoga iste'molchi nazari bilan emas, ma'naviy qadriyatlarini o'zlashtirgan inson nazari bilan nigoh tashlaydigan bo'lishadi...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зуннунов А., Хотамов Н., Эсонов Ж., Иброҳимов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т: Ўқитувчи, 1992. – 232 б.

"Metodist" 2025-yil 2-son

2. Адабиёт ўқитиш методикаси. Педагогика институтлари ва университетларнинг филология факультетлари учун дастурий қўлланма. – Т.: РЎММ, 1994. – 94 б.

3. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. - Т.: Ўқитувчи, 1996. – 152 б.

"Metodist" 2025-yil 2-son

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA NAVOIY MEROSINI 4K
MODELI ASOSIDA O'QITISH**



Sarvinoz DANİYAROVA

Buxoro PMM metodisti

El-manzil:

daniyarovasarvinoz370@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Navoiy ijodiy merosini o'quvchilarga zamonaviy metodlar bilan o'rgatish, 4K modeli, darslarda zamonaviy metodlardan umumiy foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Navoiy ijodiy merosi, ta'lim sifati, 4 K modeli, zamonaviy metodlar, ta'limni tashkil qilish shakllari.

Annotation. In the article, teaching Navoi's creative heritage to students with modern methods, modern education, how a modern teacher should teach students today, 4K model, effective use of modern methods in lessons issues have been considered.

Keyword: creative heritage of Navoi, quality of education, modern teacher, 4K model, modern methods, forms of educational organization.

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы преподавания творческого наследия Навои учащимся современными методами, как современный учитель должен обучать учеников сегодня, модель 4К, эффективное использование современных методов на уроках.

Ключевые слова: творческое наследие Навои, качество образования, модель 4К, современные методы, формы организации образования.

Buyuk mutafakkir, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy qoldirgan ma'naviy meros nafaqat xalqimizning, balki butun

"Metodist" 2025-yil 2-son

insoniyatning ma'naviy mulkiga aylangan. Chunki, hazratning insonparvarlik g'oyalari millatidan, jinsidan, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar umuminsoniyatning manfaatiga xizmat qilmoqda. Alisher Navoiy ilgari surgan xalqparvarlik, insonparvarlik g'oyalaridan bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida oqilona foydalanish oldimizda turgan asosiy vazifalardan biridir.

Kelajak avlod bilan ishlayotgan, ularga bilim berayotgan o'qituvchilar ham yildan yilga dunyo qanchalik o'zgarib borishini tushunib bormoqdalar. Kelgusida o'quvchilarning raqobatbardoshligi bevosita muallimlarning pedagogik mahoratiga bog'liq. 4K modeli insonlarning bir-biri bilan tanishish, mehnat taqsimoti bo'yicha aniq kelishib olish, jamoa bo'lish, belgilangan muddatlarni o'tkazib yubormaslik va muloqotni samarali davom ettirish qobiliyatini nazarda tutadi. Zamonaviy ta'lim o'quvchilarning nafaqat bilim va ko'nikmalarini belgilab beruvchi mezon, balki dunyoqarashi, dunyo taraqqiyotiga qo'shadigan hissasini ham aks ettiruvchi muhim qadriyatdir. Shu ma'noda, ta'lim tizimi amaliyotida barcha o'quv fanlarini, jumladan, adabiyot o'qitish jarayonida ham bu modeldan foydalanish mumkin. 4K modeli o'z ichiga to'rtta asosiy ko'nikma: tanqidiy (kritik) fikrlash, ijodkor (kreativ)lik, muloqot madaniyati (kommunikatsiya) va jamoa bilan ishlash (kollaboratsiya) kabilarni qamrab oladi.

Tanqidiy fikrlashda o'quvchilarni ma'lumotni tahlil qilish, u haqida o'ylash, o'z fikrlarini shakllantirish va yechimlarni topishga yo'naltirish muhimdir. Tahlil – o'quvchilarning topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo'lish, o'z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy bog'lanishli matnlar yaratish, maqsadlarni belgilash va erishish mumkin bo'lgan vazifalarni to'g'ri shakllantirish, dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash bilan bog'liq qobiliyatlarini anglatadi. Navoiy asarlarini o'rganish jarayonida o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga yo'naltirishda o'qituvchining asardagi yetakchi g'oyalarni ilg'ash va ularni tahlilga tortishga qaratilgan tanqidiy fikrlashga yo'naltiruvchi savol va topshiriqlari qo'l keladi.

Ijodkorlik ko'nikmasida o'quvchiga xos bo'lgan qiziquvchanlik ustuvorlik qiladi va u bolaning tevarak-atrofdagi olamga, odamga

"Metodist" 2025-yil 2-son

qiziqishi, ular haqida ko'proq bilishga bo'lgan intilishi, axborotni mustaqil izlash hamda savollariga javob topish qobiliyatini nazarda tutadi. Insonga xos bo'lgan tasavvur ko'plab original va nostandart g'oyalarni ishlab chiqishga asos bo'ladi. O'quvchilarda mazkur ijodkorlik ko'nikmani shakllantirish uchun "Bir daqiq" metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda Navoiy hayotiga doir 10 dona fakt, ulug' alloma qalamiga mansub 10 asar, ijodidagi 10 janrni aytish vazifasi qo'yiladi vazifaning sharti sifatida berilgan topshiriqlarga bir daqiqadan vaqt beriladi. Natijada o'quvchining diqqati jamlanadi, fikr mulohaza qiladi. Bu ish turi o'quvchilarni bevosita ijodkorlikka yo'naltirmasa-da, ularni ijodkorlikka tayyorlaydi.

Muloqot madaniyati ko'nikmasi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar hayotda bevosita boshqalar bilan muloqot qilishni, guruhda vazifalarni taqsimlashni, qisqa va aniq gapirishni o'rganishlari kerak bo'ladi. Muloqotdan cho'chimaslik va muloqotni uyushtira bilish qobiliyati, savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik bolalarda bu ko'nikmaning shakllanishiga ma'lum darajada asos bo'ladi. O'quvchilarda bunday ko'nikmani shakllantirishda "Globoalfavit" metodidan foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilar alifbo ketma-ketligi bo'yicha Navoiy asarlari misolida so'zlarga misollar aytishi so'raladi. Masalan: 1-o'quvchi Navoiy ijodi bo'yicha o'rganilgan asarlar sirasidan A harfi bilan boshlanuvchi so'zni; 2-o'quvchi B harfi bilan boshlanuvchi so'zni aytadi va hk. O'quvchilar Alisher Navoiyning o'zlariga tushgan harf bilan boshlanuvchi g'azallarini aytishlari, nazariy ma'lumotni bayon etishlari kerak bo'ladi. Harflar darsning mustahkamlash qismida o'qituvchi tomonidan taqsimlanganidan so'ng, o'quvchilar tezkorlik bilan berilgan vazifani bajarishlari kerak bo'ladi.

Jamoaviy ishlash ko'nikmasi o'quvchilarda umumiy maqsadlarni o'z maqsadidek qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi, ularga erishish uchun birgalikda harakat yo'nalishini qurish qobiliyatini rivojlantiradi. Ijtimoiy o'zaro ta'sir, ya'ni umumiy maqsadlarni muhokama qilish, muzokaralar olib borish, o'z jamoasini shakllantirish qobiliyatini ham tarkib topiradi, mustaqillik va avtonomiya va tashabbuskorlik g'oyalari ilgari suriladi

"Metodist" 2025-yil 2-son

Zamonaviy ta'limda bugungi o'qituvchi ta'lim shaklini sinfdagi o'quvchilarning intellektual imkoniyatlari va tajibasidan kelib chiqib tanlaydi. Bunda albatta zamonaviy metodlar qo'l keladi. Masalan, "FSMU", "Muammoli vaziyat", "Mantiqliy-matematik zakovat", "Reportaj tayyorlash", "To'g'ri-noto'g'ri", "T-sxema" metodlaridan o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishda foydalanish mumkin.

Kreativlik (ijodkorlik) ko'nikmasini rivojlantirish uchun "Ven diagrammasi", "Kundalik daftar", "Ranglarda qahramonlar tasviri", "Klaster" va "Bir daqiqa" metodlari mos keladi.

Muloqot madaniyati ko'nikmasini rivojlantirish uchun "Men notiqman", "Intervyu", "Hikoya qilish", "Fikrlar hujumi", "Nima uchun?" va "Globoalfavit" metodlarini qo'llash mumkin.

Jamoaviy ishlash ko'nikmasini shakllantirish uchun "Keys-stadi", "Ijodiy ish", "FSMU", "Mozaika", "Yozma bahslar" metodlari mos keladi.

O'quvchi-yoshlarda ma'naviy, axloqiy, insonparvarlik sifatlarini shakllantirishda, Navoiy merosidan foydalanishni takomillashtirish uchun maktab yoshidagi o'quvchilar uchun Navoiy asarlaridagi maqolot, hikoyat va rivoyatlar asosida: multimedialardan foydalanish; sinflarda o'qitiladigan tasviriy san'at, musiqa darslarining imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanish; mutafakkirning ijodi faqat tavallud kunida yoki bayramlarda emas, yil davomida tizimli ravishda o'rganilsa millatimizning quyoshi bo'lgan hazrat Navoiyning ruhiyati oldidagi ma'naviy burchimizni bajargan bo'lamiz.

Mamlakatimizda "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" g'oyasi asosida Yangi O'zbekistonda barpo etishning zarur, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi. Bundan sal kam olti asr oldin hazrat Navoiy ilgari surgan insonparvarlik g'oyasining taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar bilan hamohang ekanini ko'rish mumkin. Navoiyning ijod bulog'idan suv ichgan bu g'oyalar xalqimizni va mamlakatimizni porloq cho'qqilar sari undayveradi.

Xulosa shuki, o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida hazrat Navoiy merosini o'rgatishda 4K modelini darslarga tadbiiq etish maqsadga muvofiq. Bunda albatta

"Metodist" 2025-yil 2-son

zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish lozim. Har bir o'qituvchi bu omillarga e'tibor bersa zamonaviy ta'lim o'z maqsadiga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm- fanni-2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
3. "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi" dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo'llanmasi. -T. 2023
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 7-jild. - T.: "Fan", 1991.

"Metodist" 2025-yil 2-son



Abdunabi BOYQO'ZIYEV
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
a'zosi
El-manzil: Abdunabi54@mail.ru

BOLTA QOROVUL
(hikoya)

-Boltashvoy! Ho', Boltashvoy!
- Nima diysiz
- Turing-ay, yotovurmay...
- Juda jonsarak odamsizda, polvon aka. Shu ishti bugun qilmasak osmon uzilib tushadimi?
- Uzilib tushmasu...
- Uzilib tushmasa, yotaylik picha.
- Ozodlikka ozgina qolganda ishkal chiqmasin deymanda. Shapaloqday joy qoldi, chopib qo'yayqolaylik.
Azim polvon shunday deb o'rnidan turdi. Qaddini rostlab, kerishdi va nariroqda yotgan ketmonni qo'lga olib, egat oralab lavlagi paykalining chopig'i chala qolgan tomonga qarab yurarkan, g'o'ldiradi:

- Borman (qamoqxona boshlig'i)ning mashinasi Hamdamariq tomonga o'tib ketdi. Yotganimizni ko'rdi...

U bu so'zlarni Boltashvoyga aytdimi yo shunchaki o'ziga o'zi eslatma qildimi, anglab bo'lmadi.

Bolta qorovulning qaysi qishloqdan ekanligini biror kimsa aniq bilmaydi. Kimdir poytug'lik, desa, boshqasi Gezyo'li tomonlarning odami bo'lsa kerak, deb qo'yadi. Qishlog'imiz ahli yuzini jun bosgan, tikilib boqsa nigohi ichingni muzlatib qo'yadigan bu gorillasifat

"Metodist" 2025-yil 2-son

odam, har holda, qaysidir bir qishloqdan chiqsa chiqar, faqat bizning Yormazordan emas, degan fikrda qat'iy edi.

Bolta qorovulni tanimasligimizning boisi, kattalar nazarida biz yosh yalanglar bilishimiz shart bo'lmagan alohida sirli tomonlari ham borligi edi. Ushbu hikoyamizda Bolta qorovulning ana shu sohir jihatlarini holi qudrat bayon etishga harakat qilamiz.

Boltashvoy, shundoqqina Qoradaryo bo'yidagi Sayroboq qishlog'ida tug'ilgan bo'lib, uning yoshlik chog'larini yaxshi bilganlar bundan o'ttiz yillar ilgari undan dovyurak, undan dilovar yigit bo'lmaganligini bir ajab hayratlanish bilan gapirishadi. Ayrimlar, qani endi, o'g'ling bolsa, shu Boltashvoyday bo'lsa, degan otalarni, bo'y yetgan qizini mana shu qorako'z-qoraqosh yigitga uzataman, deb joni port bo'lgan juvonlarni eslashadi.

Dehqonchilik qoidalariga ko'ra, odatda ekin maydonlari almashlab turiladi. Chorvaga yem-hashak yoki ozuqabop ekinlar kolxozning qaysi bir brigadasiga ko'chsa, faqat shu - Bolta qorovul borib qo'riqlaydi. Buni butun kolxoz yaxshi biladi. Shuning uchun uni xonobodliklar ham, yormozorliklar ham, dashtliklar ham Bolta qorovul deb taniydi. Bolta qorovul qo'riqlayotgan paykaldan odam bolasini qo'ying, xatto xayvonlar ham chetlab o'tadi degan gaplar yuradi el orasida. Familiyasini tabelchi yoki kassir bilmasa, qolganlar uchun u shunchaki Bolta qorovul. Hatto, rais uchun ham. Aytishlaricha, Bolta qorovulga kolxoz raisi tugul rayonni zir titratgan nachalnink melisayam qattiq-quruq gap qilolmas ekan. Chunki uning uchun odamkushlik pashshani miyg'ilashday maroqli ish emish. Nafsoniyatiga tekkan kasni ikkilanib o'tirmay, kallasini sapchaday uzib qoyishi hech gap emasmush. U qamoqdan qutilib chiqqanidan keyin paysalga solinmay, o'ziga ma'qul biror ish bilan ta'minlanishi haqidagi topshiriq ham yuqoridan kelgan, deyishadi. Aks holda, yana biron og'ir jinoyatga qo'l urishi hech gap emasmish. Emish va yana emishlar...

Boltashvoy Zokir raisni uyidan chaqirib darvozasiida so'yib tashlaganida yigirma beshga ham kirmagan yigitcha edi. Uning bu qilmishi garchi qotillik esada, el-yurt, ayniqsa, oddiy

"Metodist" 2025-yil 2-son

kolxozchilarning nazdida raisning nojins, naxs qilmishlari uchun Xudo tomonidan buyurilgan jazoning yosh bir jasur yigit qo'li bilan ado etilgan ijobati sifatida qabul qilindi. Bu gapni sudda yurak yutib aytib Boltashvoyni himoya qilganlar ham bo'ldi. Biroq dunyoning biron bir yasog'i odam o'ldirgan kishiga shafqat qilmaganidek, sho'ro qozilari ham bu "bola qotil"ni, hali bola-ku, deb o'tirishmadi.

Bolta qorovulning qiyofasi doim bir tushunarsiz tund bo'lar, odamga zimdan tikilib qarab qo'yadigan ko'zlari, qora qo'chqorning terisidan kesib yopishtirilganday qalin tukli sovuq sukun ifoda kasb etib turuvchi yuzlariga tug'ilganidan buyon xursandchilik inmaganov, deb o'ylardi ko'rgan kishi. Tikilib boqsa simillab botuvchi qattiq nigohlariga shafqat dorimaganiga ham kim bilsin, necha zamonlar bo'lgan. Jundor, yo'g'on bilaklari, qayroq toshday qattiq g'o'rasha barmoqlari unga odamlar bilan so'rashish uchun emas, kimlarningdir bag'rini sug'urib olish uchun ato etilganday taassurot qoldirardi kishida.

Raisning qiz yuvonlar bobida suyagi yo'qligi avomga ham sir bo'lmay qolgan edi. Biroq, ne choraki, rais baribir raisda. Bo'lganda ham, oshig'i olchi, faqat tumandagina emas butun vodiyda dongdor, taniqli odam. Har sohada ilg'or, iqtisodi baquvvat xo'jalikning aytgani aytgan, degani degan rahbari. Poyezd istansasiga nimaiki kelib tushsa, avval "Partsyezd" kolxozi oladi. Ana undan keyin boshqalar. Bu borada shakllangan "yozilmagan tartib"ni bironta xo'jalik rahbari buzib ko'rsinchi, o'zini qayerda ko'rarkin! Buni butun el ulus yaxshi biladi. Zokir rais bilan shox tashlashaman degan qancha "polvon"larning beli sinib, qo'rdan chiqib ketdi.

Mana shu, joriy yilning o'zida paxta planini bajarish uchun raport topshirishdagi hangomalarni oling. Tuman gazetasida kunma kun e'lon qilib borilayotgan jadval bo'yicha "Qizil oktabr" davlat xo'jaligi birinchi, "O'zbekiston" jamoa xo'jaligi ikkinchi, "Partiya XXI syezdi" jamoa xo'jaligi uchinchi o'rinda borayotgan edi. "Marraga bir odim qolganda, kuniga to'rt-besh foizdan hosil yig'ishtirib olayotgan ikki ilg'or xo'jalikning kutilmaganda shahdi pasayib, yarim foizga tushib qoldi. Partsyездchilar esa keskin sakrash qilib, so'nggi ikki kunda salkam o'n foiz hosilni davlat

"Metodist" 2025-yil 2-son

omboriga joylab qo'ydi va g'alaba bayrog'ini ilib ketdi" (tuman gazetasi bosh maqolasidan iqtibos).

Uzunquloq gaplarga qaraganda, taqimdan uloq talashib borayotgan ikki ilg'or xo'jalik rahbarlarini raykom buva kabinetiga chaqiribdi. Debdiki: "Marraga bayroqni birinchi bo'lib "Partsyезд"chilar tikishi kerak! Har ikkingiz ham kunlik terimning sakson foizini Zokir rais hisobiga yozdirasiz. Yuqorining topshirig'i shunday. Zokir Sheraliyevichning nomzodi allaqachon obkom byurosida tasdiqlanib, Moskvaga ketgan. Xudo xohlasa, shu yil oktabr bayramida bizning rayondan geroy chiqadi".

Aslida, dilni g'ash qiladigan bu qabil hangomalar onasiga ergashib dalaga chiqa boshlagan kezlaridan Boltashvoyning qulog'iga ham chalinadikuya.

Zokir rais tunov kuni Odashali qorining yakka-yu yolg'iz, sutga chayilganday pokiza qizi, ilg'or terimchi Vazirani yoniga chaqirib "Seni o'zim rayonga obborib komsomol qilaman. Brigada boshlig'i bo'lasan. Keyin Toshkentda o'qib, agronom bo'lib qaytasan. Xudo xohlasa, mening o'rnimni egallaysan", – deb qo'ydi.

Vazira, albatta, raisning bu gapini rahbarning g'amxo'rligi – otalarcha mehribonligi deb qabul qildi. Qo'yingki, ikkalasi ham orziqib kutgan komsomolga qabul kuni ham keldi. Faqat raisning Volgasi rayonga emas, Dasht tomonlarning eng chekka brigadasi shiyponiga qarab yo'l soldi...

Vazira homilador bo'lib qolganini his etgach, kundana kunga ikki dunyosi qorong'ilashib bordi. Ming xil o'-yu vasvasalar og'ushida tunlarni tonglarga ulamasin, xayol oynasining biron joyidan zarracha bo'lsin najot nuri ko'zga tashlanay demasdi. Ko'ngli tez-tez aynib, o'qchishlari ko'paydi. Bu isnod alomatlarini birinchi bo'lib, albatta, onaizor sezdi. Sho'rlik ona boshini qayoqqa ursin? Kimga yorilib, kimga dod etsin. Volidayi zor chorasizlikdan o'zga chora topolmay, garang bo'lib qolgan edi.

Otin oyi qizining ahvolini eri Odashali qoriga aytmay ham iloji yo'q edi. Lekin, qanday aytadi? Xo'p, amallab aytdi ham deylik, choli o'sha zahoti yuragini changgallab, o'libgina qolmasmikin?!

"Metodist" 2025-yil 2-son

Evohki, ish xuddi Otin oyi ko'nglidan o'tganiday bo'ldi. Yakka-yu yolg'iz qizi nomusidan ayrilganini eshitgan Qori kalavlanib qoldi. To'rt-besh kun gumranib yurdi. Masjidga borib imomlikka o'tishni ham siyraklatd. Bir haftaki, tongda bomdodga yumalab olishga ham holi kelmaydi. Oxirgi kunlarda tamom to'kilib, so'rrayib qolgan chol bugun choshgohda omonatini topshirdi qo'ydi.

Cholining kuyuti, isnodning kuchi Otin oyini ham yiqitdi. U ham o'mganini ko'tarolmay, to'shaknishin bo'lib qoldi.

Fojialar oqimining bu qadar tez, ko'lamli bostirib kelishi Vazirani tamom esankiratib qo'ydi. Kechagina ota-onasining issiq bag'rda erkanlab bir dunyo orzu havaslar og'ushida porillab yurgan qizgina uchun endi bu dunyo tamom zimistonga aylandi. Otayotgan tonglar shafag'i esa uning uchun shu qadar yoqimsiz hodisa bo'lib qoldiki, kun yorishaversa, Vaziraning ichi qorong'ilashib borardi. Ro'zg'or kami, turmush tashvishi neligini bilmay, yaxshi kim-u yomon kim ajratmay o'sayotgan sodda va ishonuvchan qizaloqqa bu savdalar dahshatli quyun girdobining o'zginasi, bu girdibodda u mutlaqo nochor va ixtiyorsiz edi. Beomon quyun uni chirpirak qilib qayon va qancha uchiradi, buni ham bilmasdi. Boz ustiga, yana o'sha xud-xud ko'ngil bexuzurligi. Aytarli hech narsa yemaydi, lekin ko'krigidan otilib keladigan bir balo o'qchiq ichu bag'rini tashqariga chiqarib tashlasam deydi...

Ana shunday vos-vos, azobli tunlarning birida u allaqanechuk shum xayol bilan uyg'ondi: uning uchun endi yashashning zig'ircha qizig'i qolmagan, zero, yashay olishiga ham ko'zi yetmay qolgandi. Qay tomonga boqmasin, umidsizlik, chorasizlik. Xudo ko'rsatmasin, Otin oyiga ham biron korhol bo'lsa, holi ne kechadi, kimlarning qo'lida qoladi?!

Aql-u shuuri o'ziga bo'yin sunmay qolgan navnihol vujud uchun bu beomon mavhumlikning o'zginasi edi. Isnod ostona xatlamay, o'zini o'zi bir yoqlik qilib qo'yaqolsamikin?! Binobarin, boshqa yo'li ham yo'q-ku?!

Vazira shu topda, nima uchundir, dadasi Odashali qori bilan onasi Otin oyiilar bot-bot mutolaa qilishadigan she'riy kitobdan yodlab olgan g'azalni esladi. Ajabki, bu gal u o'sha misralar mazmunini boshqatdan kashf etayotganday, mohiyatini chuqurroq

"Metodist" 2025-yil 2-son

his qilayotganday edi. G'azal matla'sini avval yurak yuragidan o'tkazib, ikki bor takrorladi.

Ay, shamol, keltur menga sunbul sochini bo'yini,

Tushsa tushsin boshga bir, hazrat Alining o'yini.

Keyin siniq, judayam bir hazin ohangda qo'shiq qilib kuylay boshladi:

Ay, shamo-o-l, keltur mengaaaa...

Xayolot olami tamom mahxumlikka evrilgan sho'rlik qizning majruh shuuri negadir faqat shoir ta'rif etgan sunbul sochlarnigina o'ylar, u sochlardan bir xushbo'y islar tuyar, tahayyuli nuqul o'sha haydar sochlarni o'rib, go'zal chilvir shakliga keltirishga urinar edi. G'azalning "Ay, shamol, keltur menga sunbul sochini bo'yini!" misrasini bir sassiz un ila "Ay, shamol, keltur menga chilvir sochini bo'yini!", deya o'zgartirib aytgisi kelar, ko'nglining bir chetida esa shu chilvir sochlar chiyratma arqonga aylanib qolsachi, degan xayol millatlab qolar, bora bora bu millatlash moddiyashib, tasavvuridagi chilvir soch rangin arqon shaklini olar, va ajabki, boshi uzra sollana boshlardi.

Qanday xuzurbaxsh manzara! Kel, kelaqol ey go'zal chilvir, tomoqlarimga chirmash! Zora, ushbu girdibodda alvasti qurchoqqa aylanib, chirpirab borayotgan ixtiyorsiz vujudimni bu balolardan qutqarsang, xalos etsang! Ha, meni bu beshafqat dunyo o'yinlaridan sen, faqat sengina xalos eta olasan, go'zal arqon!..

U shunday to'zg'in xayollar og'ushida g'azalning keyingi ikki baytini ovoz chiqarib shivirladi:

Bul o'yinning xavlini mushrikkada ko'rmam ravo,

Tushsa qilgay, ming qazovu ming qadarning o'yini.

Qizgina, umr bo'yi olloining ibodatida qoim kelayotgan, ahkomlariga sodiq, imon e'tiqodida mustahkam, pokiza insonlarning farzandi emasmi, boshiga tushgan ushbu kulfatlarni xatto Yaratganning mushrik bandasiga ham ravo ko'rmasligini, ko'ra olmasligini ich-ichidan his etardi. Yo'q, bu zalolat uchun ota onasi zig'ircha aybdor emas. Chunki ular nafs rizosi va shaytoni layin muddaosi haqida ko'p va xo'b tavallolar qilishgan. Xatolik faqat uning o'zida, sust imoni-yu, kemtik e'tiqodida. Shunday bo'lmasa, bu yolg'on dunyoning bir shayton bandasi aldoviga laqqa tusharmidi. Ha-ha, ayb bu dunyoning oniy xuzur halovatiga uchib,

"Metodist" 2025-yil 2-son

nafs yo'lini tanlagan irodasida. Biroq, ko'nglining allaqayeridagi qandaydir uryon tuyg'u unga g'azalning navbatdagi baytlarini bir umid, bir jur'at va dalda ishorasi o'laroq peshkash qilayotganday ham edi. Ya'ni:

Bu qazovu bu qadardin zarra vahmini yo'q, magar

Kim topg'amiz ikki dunyo obi hayvon suyini.

"Bu qazo-o-vuu bu qadardi-in zarra va- ah-mim yo'o'-q..."

Nimalar deyapsan, tentak qiz?! Qilg'ilikni qilib, otangni laxadga tiqib, sho'r- lik onangni qon qora qaqshatib, to'shakka mixlab qo'yib, yana nimalar deb alji- rayapsan?! Bu qazovu bu qadardin zarra vahmim yo'q, emisha! Tushunyapsanmi o'zing, nimalar deyayotganingni? Shoirilar nelarni yozmaydi, nimalar deb valdiramaydi!

Biroq shunday ajoyib satrlarni tizgan shoir shunchaki gaplarni valdiramasa kerak? Ammo lekin, shoirilar ham hammaga o'xshagan gunohkor banda, ularning ham kushandasi nafs! Nafs ko'yi nelar degizmaydi, nelarga giriftor etmaydi. Ehtimol, aynan ana shu chilvir unga najot rishtasi o'laroq yaratganingni obi rahmatiga erishtirar?!

Ay, go'zal chilvir, kel, bo'lar ish bo'ldi. Bas, boshqa choram yo'q! Bo'ynimga mahkamroq chirmashi! Biz sen bilan "obi hayvon suyi"ga tomon yuksalamiz. Kell!..

Shundoq tepasida sollanib turgan chilvir Vaziraning nazarida xuddi uning ichki nidolariga quloq tutayotganday boshi uzra sollanib tebranan, so'ng pastga enib, xuddi erkalaganday, qizning ingichka va nozik tomoqlariga chulg'ana boshlardi. Ammo, xuddi shu payt, qayerdandir paydo bo'lgan bir erkak qo'l sirilib, toboro torayib sirtmoqqa aylana boshlagan arqonni jon-jahdi bilan siltab, qizning boshidan yulqib tashlardi.

Vazira bu haloskor qo'l kimning qo'li ekanligini tanidi. Ha, bu o'sha, hikoyamizning boshida "jundor bilaklar", "qayroq toshday g'o'rasha barmoqlar", "odamlar bilan so'rashish uchun emas, kimlarningdir... yuragini sug'urib olish uchun ato etilgan", deya ta'rif berganimiz Boltashvoyning qo'llari edi! Nahotki, shu chayir, chiroyli qo'llar o'sha gorillasifat kimsaniki bo'lsa?! Yo alhazar!..

"Metodist" 2025-yil 2-son

Vazira chilvirni necha bor najotga chorlab, boynini qanchalar unga chog'lamasin, xaloskor qo'llar ham bo'sh kelmadi. Qo'l va arqon jangi tinimsiz ikki kun davom etdi. Uchinchi kuni, juma tongida "qayroqtoshday qattiq va baquvvat qo'llar"dan tamom mador ketdi va...

Bomdod namozidan chiqib kechagina bandalikni bajo keltirgan Odashali qorining uyiga fotihaga kelgan kishilar Vazirani darvozadan kiraverishdagi bostirma to'sinida osilgan holda topishdi!..

Ushbu xunuk voqealardan keyin Yormazor qishlog'i ahlining sabr kosasi tamom to'ldi. Yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan erkagu ayolning ko'ksida raisga nisbatan bir betizgin alamli tug'yon isyon qila boshladi. Zokir raisning barcha g'ayriinsoniy kirdikorlarini ko'rib yursa ham o'zini bilmaganga oladigan Boltashvoyning ham izzat nafi Vazirasining o'limidan keyin chiyralgan arqonday chirt uzildi. O'sha kuni: "Oh, sho'rlik Vaziraaa!!" – deya uvvos solmagan xotin xalajning o'zi qolmadi. Bu oh-u faryodlar, ayniqsa, ayollarning yoppasiga alamli bir qarq'ish lahasida, aytib-aytib girya qilishlari Boltashvoyning diydadini battar qahrga to'ldirdi, toshday qotirib, toshbag'ir qilib qo'ydi. Uning o'rtangan bag'riga endi otasidan meros bo'lib qolgan yaroq – shahrixoniy pichoq malham qo'ymasa, boshqa chorasi yo'q edi!...

Vazira Domla buva va Otin oyining yolg'iz dilbandi, ko'zlarining oq-u qorasi bo'lsada, erka-tantiq emasdi. Yaratgan bu qizning husn-u malohatiga yarasha odob-u ibo ham ato etgandiki, ko'plar bunaqa farishtani faqat O'zi alohida suvgan bandasigagina ato etadi, deb qo'yishardi. Qo'yingki, olmaning shirini qurt yeydi, degani ham rost shekilli, Boltashvoyning qalb ardog'ida endigina atirgul g'unchasiday ochila boshlagan sho'rlik Vazira ham naxs raisning tuzog'idan omon chiqmadi!..

Zokir raisning qamchisidan qon tomgan qatag'on yillaridagi qilmishlari haqida ham bir dunyo mish-mishlar yurardi. Darhaqiqat, rais ko'z ostiga olgan navjuvon ayollarning kuyovlarini tuzum dushmaniga chiqarib, qamattirib yuborar. Nochorlikda

"Metodist" 2025-yil 2-son

qolgan oilasiga esa go'yoki g'amxo'rlik ko'rsatgan bo'lib, murediga yetardi. Ikkinchi jahon urushi boshlanganidan keyin noqulay erkaklarni frontga "safarbar" etib, maqsadiga erishib yurdi. Ammo har qanday bedodlikning intihosi bo'lganiday, Stalin qatag'onlariga ham nuqta qo'yildi. Urush tugab, mamlakat uchun mashaqqatli ammo bir qadar hotirjam tiklanish yillari boshlandi. Zokir naxsning eski nayranglari endi ish bermay qoldi. Ammo o'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymaskan. Chaqimchi shotirlaridan yormozorlik Vaziraning daragini eshitgan rais kuyikkan ilonday to'lg'onaverdi. Kolxoz a'zolari bilan o'tkazgan bir umumiy yig'ilishida Vazirani o'z ko'zi bilan ko'rgach, aql-u hushidan tamom ayriildi. Vaqtni boy bermaslik qasdida faollarni idoraga yig'ib, komsomol yoshlar tashkiloti a'zolari ko'rsatkichi bo'yicha boshqa xo'jaliklardan orqada ekanliklari haqida tahdidli va'z qildi. Ayniqsa, ketmonchi xotin qizlarning yanada ochilib-sochilib yurishi, erkin mehnat quchog'ida yayrab yashnashiga bo'lgan har qanday mone'lik siyosiy ko'rlik, kommunistik tuzum prinsiplariga sabotaj sifatida baholanishini alohida pisanda qilishni ham unutmadi.

Shunchaki tasodifmi yoki taqdir hazili, har holda Azim polvon ham, Boltashvoy ham odam o'ldirib kesilgan aristonlardan edi. Ikkalasining ham hujjati-yu, nomai a'molida "qotil" degan tamg'a bor. "Delo"laridagi boshqa tafsilotlar ham aytarli bir xil: ikkalasining ham quroli – pichoq. Bu yog'ini so'rasangiz, ikkalasi ham, aynan, kolxoz raislari kirdikorlari bilan bog'liq ishlarga isyon oqibatida qamalishgan. Bu yerda ham ular bir barakda, yonma-yon yotishadi. Ikkalasi ham bir yilda, aytarli bir xil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan. "Srok"ning asosiy qismini qattiq rejimli qamoqxonalarda o'tkazgach, qolgan muddatini yengilroq tartibli manzil koloniyada o'tash hukmi bilan shu yoqqa – G'allaquduqqa itob qilinishgan...

Sen tirmizak, Bolta qorovulning q'llari qayroqtoshday qattiq va g'o'rashligini qayerdan bilasan, deysizmi? Bilamanda! Chunki qarshimizdan chiqib qolguday bo'lsa, biz bolalar tirra qochadigan, singalab tikilsa, bolalar u yoqda tursin, katta kishilarning ham damini ichiga tushirib yuboradigan o'sha yovvoyi odamning

"Metodist" 2025-yil 2-son

changgaliga tushib omon chiqqan "qahramon bola" men bo'laman. Nima, ishonmaysizmi? To'g'ri, o'sha voqeani eslasam, haliyam quloqlarimgacha qizarib ketadi. Bu voqeaga esa, sizga aytсам, o'sha, otamning jon do'sti Egambergan buvamning bizdan bir sinf keyin o'qiydigan tam-tam qizi Havoxon sababchi. Yo'q, Havoxon erka, shaddod bo'lgani bilan aslida yomon qiz emasdi. Buni men juda yaxshi bilardim. Bilardimgina emas, ich-ichimdan his qilardim.

Bu gapimga shuning uchun ham ishonishingiz kerakki, Havoxonning onasi, ya'ni Ukparxon aya ham onam uchun "o'rgulay o'rtoq" edi.

"O'rgilay o'rtoq" degani nima, bilasizmi? Bilmaysizmi? Unda eshiting. "O'rgilay o'rtoq" degani, onangiz yig'lasa, u ham yig'laydi. Kulsa kuladi. O'rtalarida deyarli sir bo'lmaydi. To'y-to'ychiq, yig'in-sig'inlarda alohida chorlatib o'tirishmaydi. Bir birovini tez-tez tansiq taomlar bilan yo'qlab turishadi. Ancha-muncha bordi keldi, yugur yetim ishlarga biz tomondan u yoqqa men g'izillayman, u tomondan biznikiga Havoxon. Onalarimiz, deylik, ko'ngli nimadandir g'ashlik tuyib qolishsa, yumushlarini yig'ishtirib, biron yerda uchrashishada, obdon hasratlashib, g'uborlarini yozib olishadi.

Ukparxon aya onam bilan ana shunaqa o'rtoq. Qo'yingki, unisi bunisining dardiga dori, yarasiga malham, desa ham bo'laveradi.

Ota-onalarimiz o'rtasidagi yaqinlik menga ham, Havoxonga ham yoqadigina emas, ayni muddao ekanligini ich-ichimizdan his qilamiz. Biroq Havoxon ana shu ichkin quvonchlarimiz ko'chakovyrlarda oshkora namoyon bo'lishini negadir istamaydi. Maktabga ketayotib yoki darsdan so'ng uyga qaytish chog'ida u mutlaqo o'zga qizga aylanib qoladi. Barcha o'quvchilar, sen o'g'il bola, men qiz bola demay, hazil-huzul qilib, o'ynab kulib borayotgan paytlarimizda u go'yo hech kimni ko'rmayotgan, eshitmayotganday, bepisandgina ketaveradi. Shunday paytda uning e'tiborini tortish uchun qizlarning jig'iga tegadigan biron qitmirlik yoki hangomani o'ylab topaman. Mening bu qiliqlarim Havoxonga erish tuyulayotganini sezib tursamda, baribir, o'zimni tiya olmayman. Endi o'ylasam, unga qolsa, mening xayolim xuddi o'ziday, boshqa hech kimda emas, faqat uning o'zida bo'lishini istar ekan. Dugonalari bilan ijiklashishim g'ashini keltirar, qiynar ekan.

"Metodist" 2025-yil 2-son

Aslida men Havoxonning ham boshqa qiz o'rtoqlari kabi yayrab yashnab yurishini juda juda istar edim-da. Buning uchun nima qilishim, o'zimni qanday tutishim zarurligini esa sira o'ylab topa olmasdim.

Keling, yaxshisi Bolta qorovul bilan bog'liq, eslasam hozir ham a'zoyi bada- nimdan ter chiqib ketadigan o'sha voqea tafsilotini bayon qilib beraqolay. Voqea bunday b'lgan edi.

Har doimgiday, galalashib maktabdan qaytaypmiz. Sal oldinda Salma (Salima), Dilosh (Diloram), Hilol (Hilola) va Havoxon borishardi. Nima deb tantiqlanmay, ne hunar ko'rsatmay, qizlar uchun ayni muddao – bajonidil yayrab kulishardi. Havoxon uchun esa, gaplarim mutlaqo ahamiyatsizday. Bu befarqlik menga biram alam qiladiki, ichimni shunaqangi yondiradiki, asti qo'yavering. Shunday paytda alamimni bosish uchun kimlargadir tegajoqlik qilishim yoki Havoxonni tilga kirgizadigan biron jumla topishim kerakday tuyulaveradi. O'sha kuni ham shunday bo'ldi. Adashmasam, men qizlarga shunday savol berdim:

– Oranglarda bir odamlar, mabodo, gung-soqovlardan emasmi?

Qoqitma ma'nosidagi bu savolim kimga qaratilganligini qizlar darrov fahmlashdi. Havoxonning bunaqa tumrayib olishlari qizlarga ham xush kelavermas ekanmi, qulay fursatdan Dilosh unumli foydalanaqoldi va men uchun ham, Havoxon uchun ham tekkiqizib, piching aralash javob berdi:

– Ayrim dugonalarimizning quloqlari ayrim odamlarning gapini eshitmaydi, eshitsa ham alim sunmaydi. Diloromning gapi tugamayyoq, so'zni Hilola ilib ketdi:

– Yo'q, o'rtoqlar! Ayrimlar o'z ismiga monand, havolarda uchib yuradi. Yerdagi odamlarning gaplari u kishimga yetib bormaydi.

Men tufayli birdaniga ikki dugonasining zaharxanda luqmasidan ko'ngli xaza yegan Havoxon alam achchig'ida, onasi tikib bergan kitob xaltasi bilan meni ura ketdi. Vaziyatni yumshatish uchun bir narsalar deb, ortga qancha chekinmay, Havoxon xovridan tushmas, so'nggi zarbada xaltasining bog'ichi uzilib, ichidagi kitob-daftarlari yer bilan bitta bo'ldi.

Shu payt, kimdir qo'llarimdan tutganday tuyuldi. O'girilsam, kim deng, o'sha, ko'zlari qip-qizil gorilla – Bolta qorovul! Yuqorida

"Metodist" 2025-yil 2-son

sizga aytganim, qayroqtoshday qattiq barmoqlari chillaki bilaklarimdan tutib olgan!...

– Xo' bolaa! – dedi u salmoqlab. – Erkak kishi ojizalar bilan bunaqa pachakilashmaydi!

Gorilla bilan bu qadar yaqin, yana deng, bilagimdan tutgani holda ro'barov turish tushimga kiribdi deysizmi. Qo'rquv degani shunaqangi dahshatli tuyg'u ekanini hayotimda birinchi bor his etishim. O'takam yorildi. Yo'q, o'takam yorildi, desam, o'sha damdagi holatimni to'laqonli ifoda eta olmasdi. Ko'zlarim Bolta qorovulning ko'zlari bilan to'qnashganida, yuragim ostida bir narsa shuv etdi. Keyin quvug'im bo'shashganday bo'ldi va qandaydir issiq suyuqlik ishtonimni xo'l qila, tuproqqa yoyila boshladi.

Gorillaning qaydan paydo bo'lganini sezmay qolgan maktabdoshlarim ham qo'rquvdan nafaslari ichiga tushib ketgan, hammalari mum haykallarday qotib qolishgandi.

Mening bu ayanchli holatimni ko'rgan Dilorom ichidagi shaytonini bosa olmadi shekilli, dimog'ida piq etdi. Birozdan keyin esa, qolganlar ham baravariga kulib yuborishdi. Esimni yig'ib, xushimga kelganimda Gorilla qo'llarini salanglatgancha, uniqlib ketgan etiklarini sassiz-sassiz bosib, o'rimi boshlangan makkajo'xorizor tomonga qarab yo'l olgan edi.

Hozirgina qizlarning oldida gapni mo'ndalayotgan eding-ku, og'ayni, deyman o'zimga o'zim! Bolta qorovulning changalida ishtoningni xo'l qilib yuborishing... Eh, bu kuningdan o'lganing yaxshi emasmi! Kim degan odam bo'lding? Sen hamma uchun Abduhoshim siyg'oqsan endi! Bugungi manzarani ko'rgan maktabdoshlaring, ayniqsa Havoxon bir umr seni shu holatda esga oladi va kula kula von yerdagilarga tasvirlab berishi tayin...

Chorpochildan kelgan, g'o'labir jussali Bolta qorovul odamlarning aytishi bo'yicha, palovni o'lguday xush ko'rarkan. Katta charx tovoqqa bosib solingan oshni bir o'zi paqqos tushirar, ustixonlarini ham ishtiyiq bilan g'ajigach, chilip yog' barmoqlarini erinmay xo'kiz terisidan buyurtma qilib tiktirgan kazon etiklariga obdon surkarkan. O'sha, yog' shimaverib, yoqimsiz qo'ng'ir tusga kirgan poyfazalini sassiz bosib ko'chamizdan o'tib qolsa, ro'parasidan chiqqan har qanday odam muguzli to'ng'izga duch

"Metodist" 2025-yil 2-son

kelgan ilvasinday kalovsirab, o'zini qayoqqa o'rishni bilmay qolardi. Biz bolalar bo'lsak, u to ko'zdan g'oyib bo'lgunicha, nafasimizni ichimizga yutib, yashirinish turar, ko'rinmay ketgachgina, yengil nafas olardik.

Bolta qorovulning qachonlardir Zokir raisni o'z uyining darvozasida chavaqlab tashlaganini butun kolxoz biladi. Biroq bu qotillikni aynan nima sababdan sodir etganini hech birovimiz aniq tasavvur etolmasdik. Chunki qishlog'imiz erkaklari bolalarning oldida bu haqda zinhor og'iz ochishmaydi. Xotin-halajlar esa Qorovulning sirlarga to'la hayoti to'g'risida biz churvaqalar tushunmaydigan, faqat kattalarning o'zlarigagina ayon lajhada shivirlashishadi. Erkaklarning og'ziga talqon solib olishi, ayollarning Boltashvoy bilan go'zal Vazira o'rtasidagi ochilmay turibiq hazon bo'lgan ishq g'unchasi haqidagi uzuq-yuluq, ilmoqli jumlaridan allanimalarni uqqanday bo'lsakda, tayinli ma'no chiqarolmay, ulg'ayishda davom etardik...

Sezib turibman, hikoyangni ikki shaxs muloqotidan boshlading. Xo'sh, Azim polvon kim? Qismatidan biroz aytmaysanmi, deyapsiz, a? U ham qotil. Ammo qanaqa qotil? Xo'sh, nima desam ekan? Azim polvon sodir etgan jinoyat tafsiloti... To'g'risi, menga qolsa, mana shu voqeani qog'ozga tushirmaganim ma'qul edikuya! Nachora!

Azim polvon kesilib ketmasidan ilgari kolxoz omboriga mudirlik qilardi. U paytlarning tartibiga ko'ra, jamoa xo'jaligining tuzidan tortib, eshagining to'qimigacha omborchining javobgarligi ostida saqlanar, sarf harajating tasarrufi esa, albatta, kolxoz raisi hamda bosh buxgalter, ahyon ahyonda partkom sekretari ixtiyoriga ham o'tib turardi. Butun ombor shu uch rahbarning shaxsiy mulkiday gap. Kimga nimani va qancha berishni, asosan, mana shu uch shaxs hal qilardi.

Ombor mudirligining uchinchi yili katta taftish keldi va...

Bunday olganda, Azim polvon namoz o'qimasada, xudodan qo'rqadigan, bandaning luqmasidan parhez qiluvchi, nafsii tiyiq yiglitigini hamma bilardi. Jamoat mulkini o'zicha bebiliska sovurgan yoki yeb yuborgan joyi ham yo'q. Kamomadi ham aytarli

"Metodist" 2025-yil 2-son

qamoqqa tortgulik emasdi! Ajabki, taftish kelganida o'sha uch rahbarning alohida qutida qulflab saqlaydigan ko'rsatmalari-yu narsa olganlarning tilxatlari sirli ravishda(?) yo'qolib qoldi. Rais istasa uni og'zining yeli bilan qamoqdan olib qolishi ham mumkin edi. Ammo rahbariyatning uning boshiga ish tushgan mana shunday qaltis pallada yuz o'g'irib olishlari sirini sira tushuna olmasdi. Qo'yingki, taftish yakuni, el-ulus o'ylaganiday bo'lib chiqmadi...

"Rastarata" bilan kesilib Olmaliqda yotgan Azim polvon o'z qishlog'i Uchko'zaga ikki bor kishi bilmas kelib ketgan deyishadi. Uning bu xufya tashriflarini qishlog'idagi ikki sirdosh do'stidan boshqa hech kim, xatto yaqin jigarlari ham bilmagan ekan. Polvonning pinhon kelib-ketishlari boisi u qamalib ketgach, hayxotday xovlida yolg'iz qolgan zavjasi Zubayda bilan kolxoz raisi orasidagi sirli sarguzashtlar deyishadi bilganlar.

Xullas, Azim polvonning Uchko'zaga uchinchi bor kelishi butun viloyatda shov shuvli voqega aylandi. Tasodifni qarangki, Polvon o'sha kuni yarim tunda hovli etagidagi o'zi urgan guvala devordan oshib o'tganida, u bilan bir necha yilni safoli o'tkazgan, bepusht bo'lsada, uning uchun suyuqli bo'lib qolgan Zubaydasi xobxonada yolg'iz emasdi...

Qaynoq ehtiroslar og'ushida ikki dunyosini tamom unutgan erkak bilan ayol Polvonning eshikdan kirib kelganini sezmay ham qolishdi. Qip yalang'och holatda, turli ko'ylarda, jovlib yotgan Zubayda bilan rais kutilmagan bu tashrifdan tang qotgan, sal avvalgi tashin ehtiroslaridan asar ham qolmagan edi. Ikkovi ham nuqul yonib turganda suv sepilgan tarashaday, pishillagan ovoz chiqarishardi. Odatda, har qanday noma'qul sharmandagarchilik qarshisida tamom o'risi chiqib ketadigan Polvon negadir bu holatda favqulotda hotirjam edi.

– Bu yoqlarda hayot boshqacha bo'lib ketibdi-yu! Ishqul mashvarat... Noz-ne'matlar! Biz yoqlarning farog'ati mutlaqo boshqacha!..

Polvon Shayxali turmasida bir "zek" do'sti qaysidir bir yaxshiligi uchun toza metaldan yasab sovg'a qilgan zulfiqoriy pichog'ini qinidan asta sug'urdi. Bu holatni ko'rgan odam, tamom,

"Metodist" 2025-yil 2-son

bu ikki buzuqi hozirning o'zida asfalasofilinga ketdi, deb o'ylashi tayin. Yo'q, voqea biz o'ylaganday bo'lmadi. Polvon pichog'ini yaraqlatib, ajab bir hotirjamlik bilan to'kin dasturxon ustidagi yahna go'shtdan bir parcha kesib og'ziga soldi va bamaylixtir kavsharkan, dedi:

– Mana bu noz-ne'matlarga biz faqirlarning nasibasini ham qo'shganini qarang! Oldin majruh nafsimiz ozgina qonsin. Qolgan ishlarga ulguramiz...

Polvonning "qonsin" degan so'zi to'shakdagi yalang'och oshiq moshqlarning qulog'ida boshqacha sado berdi. Kutilmagan vaziyatdan butunlay garangsib qolgan raisning boshlari tizzalari orasiga kirib ketar holatda qotib qolgan.

Ko'kragini yostiqlik bilan to'sib olgan Zubayda bo'lsa, qalt-qalt titrab ingrar, chiroyli qarog'lari jiqqa yosh edi.

Polvonning kechadan buyon ulovma ulov oshig'ich yo'l bosgani bois tuz tushmagan qursog'iga sal orom indi shekilli, nihoyat tilga kirdi:

– Rais buva, shoshilmaymiz endi. Siz bilan mehmondorchilik davom etadi. Hozir ikkalamizning xonimimiz, – u "xonimimiz" degan kalimani aytayotib zavjasi Zubayda tomon bir qarab qo'ydi va yana so'zida davom etdi, – o'choqqa o't yoqib, qozonni osadi...

Zubayda, erining bu gapidan, hayriyat, vaziyat yumshay boshladi, deb o'yladi.

Paypaslab ko'ylagini topib kiyib olmoqchi bo'ldi. Biroq bu paytda Polvon pichog'ining dami bilan ko'ylakni bosib turar, qancha tortilsa mato shuncha kesilib borardi...

– Uyalishga xojat qolmagan, endi ikovimizga ham begona emassizkul!

Polvonning bu zamzamasini Zubaydaga bu yerda u har ikki erkakka ham birday nokerak, xatto Yaratganga ham begona kimsaga aylanib qolganini anglatardi.

Erining avzoyini yaxshi bilgan Zubaydaning boshqa chorasi ham qolmadi. Yalang'och holatda o'rnidan turib, poygakdagi o'choqqa o'tin qaladi va qozonni osdi. Chap qo'li bilan avrati, o'ng qo'li bilan ko'kraklarini to'sishga harakat qilarkan, nima ovqat solay, degan nazarda eriga tikildi. Polvondan shunday sado chiqdi:

– Yog' quying, dog' qiling!

"Metodist" 2025-yil 2-son

Bir muddat o'tgach, Zubayda: "Qozon dog' bo'ldi, xo'jayin", – degan ma'noda eri tomon mungrandi. Polvondan keyingi amr yangradi:

– O'choqqa put uzatib yot!

Polvon xunuk tus olayotgan bu manzaradan bir baloni sezib, bezovta bo'la boshlagan raisga qarab o' qraydi:

– Qimirlamaymiz rais! Sabr qilasiz endi. Yo'qsa, kekirdagingizni kertib qo'yaman. Anavi megajin jon taslim qilayotgan so'qimday xirillashigizni tomosha qiladi. Hademay dasturxonga ikkovimiz uchun ham birday shirin narsa tortiladi. Yeb olganingizdan keyin, to'rt tomoningiz qibla! Ana undan keyin, elda bosh ko'tarib yurasizmi yo'qmi, ixtiyor o' zingizda...

Bu orada qozonga solingan moy qizib, yonar holatga keldi. Xobxonani paxta yog'ining dimoqni qiradigan achqimtir hidi tutdi.

Polvon zulfiqoriy yarog'ini qo'lga oldi va ohista o'choq oldida qo'rquvdan a'zoyi badani titrayotgan Zubaydaga yaqinlashdi. Ajab bir keskin harakat ila ayolining hiyonatga dahldor a'zosini o'yib, kesib oldida... qozonga tashladi. Xonani Zubaydaning og'riq azobidagi chinqirig'i-yu, allaqanday noma'lum etning jazillashi va shu kungacha hech kimning dimog'iga urilmagan allanechuk tushunarsiz hid egalladi...

Bugun o'sha mudhish voqeani eslaganlar, Zubaydani qo'shni yigitning kajavali mototsiklida tuman shifoxonasiga yetmay jon taslim qilgani, jazman raisning esa, o'sha tundan keyin biron kimsaga ko'rinish bermay, dom-daraksiz ketgani haqida gapirishadi.

Yuqorida qalamga olganimiz voqealar aslida qay yo'sin rivoj topgan. Ushbu jinoyatlar haqiqatan biz tilga olganday amalga oshganmi yoki yo'q, to'la aniqlik bilan tasvirga tortildi, deb ayta olmaymiz. Ammo, bir gapni aniq ayta olamizki, Bolta qorovul yohud Azim polvon degan shaxslar real hayotda yashab o'tgan. Xudo ikkovlarining ham u dunyosini obod qilgan bo'lsin!

Jahon adabiyotida qotillik aybi bilan qamalgan jinoyatchilar haqidagi asarlar juda ko'p. Ushbu hikoyamiz qahramonlari ham,

"Metodist" 2025-yil 2-son

balki, o'z salafllari singari taqdiridan ijrg'ansalarda, qilmishlari uchun o'zlarini bir umr kechira olmasalarda, siz bilan bizning qarshimizda go'yo adolatni qaror toptirgani uchun uzoq yillik jazo muddatini o'taganini kafforat bilib, zig'ircha afsus chekmay, qolgan hayotini jinoyat olamidan bexabar kishilar anglab yetavermaydigan allanechuk ko'ngil hotirjamligida o'tkazgan sobiq aristonlardir.

Bor gap, shu edi!

"Metodist" 2025-yil 2-son

MAKTABDA ICHKI MONITORING O'TKAZISHNING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI



Shohruh ABDIRAIMOV
TRRIMM bosh mutaxassisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
El-manzil: shohruh.abdiraimov@mail.ru

Annotatsiya. Mamlakat iqtisodiy o'sishi uchun o'quvchilarga nafaqat maktabda to'g'ri ta'lim berish, balki ta'limda baholash va monitoringni to'g'ri tashkil etish ham zarur. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada maktablarda ichki monitoring va baholash o'tkazishning ta'lim sifatiga, o'quvchilar o'zlashtirishiga ta'sir darajasini aniqlash tadqiq etildi. Tadqiqotda maktab direktorlari va direktorlikka nomzod pedagoglardan iborat bo'lgan 106 nafar respondent ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari va O'zbekistonlik o'quvchilarning PISA–2022 tadqiqotidagi natijalari tahlil qilindi. Natijalari matematik-statistik tahlil metodidan foydalanilib, tahlil qilindi. O'zbekiston ta'lim kontekstida maktablarda ta'lim sifati bo'yicha ichki monitoring va baholash ta'lim sifatiga ta'sir qilishi, ichki monitoring va baholash o'tkazish chastotasi ta'lim sifati darajasiga proporsional ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, baholash, ichki monitoring, direktorlar, o'z-o'zini baholash, qaror

Abstract. For the economic growth of a country, it is necessary not only to ensure students have proper education in school but also to organize evaluation and control in education. From this perspective, this article investigated the impact of internal monitoring and evaluation in schools on the quality of education and student learning. The study analyzed the results of a survey

"Metodist" 2025-yil 2-son

conducted with 106 respondents consisting of school principals and teacher candidates, as well as the results of the PISA-2022 survey of Uzbek schoolchildren. The results were analyzed using mathematical and statistical analysis. In the educational context of Uzbekistan, it was determined that internal monitoring and evaluation of the quality of education in schools affects the quality of education, and the frequency of internal monitoring and evaluation is proportional to the quality of education.

Keywords: quality of education, assessment, internal monitoring, principals, self-assessment, decision.

Аннотация. Для экономического роста страны необходимо не только обеспечить учащимся надлежащее образование в школе, но и организовать оценку и контроль в образовании. С этой точки зрения в данной статье изучается влияние внутреннего мониторинга и оценки в школах на качество образования и обучение учащихся. В исследовании проанализированы результаты опроса, проведенного среди 106 респондентов, состоящих из директоров школ и кандидатов в учителя, а также результаты исследования PISA-2022, проведенного среди узбекских школьников. Результаты были проанализированы с помощью математического и статистического анализа. В образовательном контексте Узбекистана определено, что внутренний мониторинг и оценка качества образования в школах влияет на качество образования, а частота внутреннего мониторинга и оценки пропорциональна качеству образования.

Ключевые слова: качество образования, оценка, внутренний мониторинг, директора, самооценка, решение.

Mamlakat iqtisodiy o'sishi uchun o'quvchilarga nafaqat maktabda to'g'ri ta'lim berish, balki ta'limda baholash va monitoringni to'g'ri tashkil etish ham muhim. Darhaqiqat, maktab ta'limida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash hamda ta'limdagi mavjud yutuq va kamchiliklarni aniqlash, monitoring

"Metodist" 2025-yil 2-son

qilish samaradorlikni oshiradi, mamlakatda inson kapitalini rivojlantiradi.

Maktabda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, nazorat qilish, boshqarish o'ziga xos ilmiy yondashuvlarni talab etadi. Jumladan, ta'lim sifatini boshqarishda ishonchlilik, mustaqillik, tizimlilik, komplekslik kabi prinsiplariga amal qilinadi. Bunda davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasi hamda ichki monitoring sinovlari alohida ahamiyatga ega. Yuqorida aytilganidek, ta'lim ko'p komponentli jarayon bo'lganligi bois ta'limga ta'sir qiluvchi omillar doim aniqlanib, mavjud bo'shliqlar to'ldirib boriladi. Bunda maktabdagi ta'lim sifatini aniqlash bo'yicha monitoring muhim vosita hisoblanadi.

Maktablarda ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash ta'limni rivojlantirishning ajralmas qismi hisoblanadi. Ta'limda monitoring va baholashning ta'limga ta'sirini aniqlash uchun ilmiy adabiyotlar va manbalar tahlil qilindi. Bu borada bir qator olimlarning ilmiy-metodik ishlarida alohida tadqiq qilingan. Jumladan, A. J. Shinkfieldning qo'llanmasida ta'limda monitoring va baholash tizimining turli modellari jumladan, CIPP modeli (Context, Input, Process, Product) hamda monitoringning bosqichlari haqida batafsil to'xtaladi. (Shinkfield, 2007) Boshqa bir qo'llanmada maktabda ichki monitoringni tashkil etish uchun amaliy tavsiyalar beriladi va baholash natijalari qanday qilib ta'lim sifatini yaxshilashga yordam berishi ochib beriladi. (Fitzpatrick, 2012) Shuningdek, boshqa bir qo'llanmada ta'limda yangiliklarni amalga oshirish va ularga qanday qarshiliklar bo'lishi mumkinligi haqida to'xtalib, ta'limdagi o'zgarishlarni kuzatish va ularni monitoring qilish asoslari ochib beriladi. (Fullan, 2015) Shular qatorida Hopkins ilmiy risolasida maktab ta'limda sinfdagi o'quvchilar faolligini monitoring qilish, o'qituvchilar tomonidan qayd etiladigan natijalar va baholash tizimlarini takomillashtirish asoslari bayon etiladi. (Hopkins, 2014).

Mahalliy adabiyotlarda umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitish sifatini monitoring qilish modellari va ta'lim sifati bo'yicha monitoring indikatorlari bayon etiladi. (Vahobov, 2016) Shuningdek maktabda ta'lim sifati bo'yicha ichki monitoringda o'quvchilarning ta'limdagi yutuqlari, maktab rahbariyati va

"Metodist" 2025-yil 2-son


o'qituvchilar faoliyati samaradorligi, oiladagi va maktabdagi ta'lim muhiti aniqlanib, baho berib borilishi bayon etiladi. (Abdurahim, 2024)

Umuman, maktabda ichki monitoring va baho berish jarayonlarini tashkil etish ta'lim sifatiga, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga, ularning ota-onalarida javobgarlikni oshishiga hamda maktab menejerlarining ta'limni rivojlantirish uchun strategik qarorlar qabul qilishida muhim hisoblanadi.

Ta'limni rivojlantirishda ilmiy yondashish, maktab bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarning o'quvchilar o'zlashtirishiga ta'sirini ilmiy tadqiq qilish, tadqiqot xulosalari asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish, maktablardagi ta'lim jarayonlarini to'g'ri tashkil etish lozim. Maktablarda ichki monitoring va baholashni tashkil etish ta'lim sifatiga qay darajada ta'sir qilishini aniqlash maqsadida tadqiqot o'tkazildi. Ilmiy tadqiqot ikki bosqichda amalga oshirildi. Dastlab, direktorlar va pedagog xodimlar ishtirokida so'rovnoma o'tkazildi va so'rovnoma natijalari maktablardagi ta'lim sifatiga ko'ra tahlil etildi. Qolaversa, PISA - 2022 tadqiqotlarida O'zbekiston o'quvchilarning natijasi va maktab direktorlarining so'rovnomaga bergan javoblarini birlashtirib, tahlil etildi.

Shundan so'ng, tadqiqotda maktabda ichki monitoring va baholash o'tkazishning ta'lim sifatiga ta'sirini aniqlash maqsadida ikkita gipoteza belgilab olindi (1-chizmaga qarang):

- maktabda muntazam ichki monitoring o'tkazish ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir qiladi (G1);
- maktabda ichki monitoring o'tkazmaslik ta'lim sifatiga salbiy ta'sir qiladi (G2).



1-chizma. Maktabda ichki monitoring o'tkazishning ta'lim sifatiga ta'sirini aniqlash gipotezalari

"Metodist" 2025-yil 2-son

Ta'lim natijalarini yaxshilashda, o'quvchilarning ta'limga bo'lgan motivatsiyani oshirishda, ota-onalar va o'qituvchilarda hisobdorlikni shakllantirishda, ta'lim jarayonidagi bo'shliqlarni aniqlashda ichki monitoring va baholashning ahamiyati yuqori.

Ushbu gipotezalarni ilmiy asoslash maqsadida dastlab Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy institutida tashkil etilgan Menejrlar o'quv kursi tinglovchilari ishtirokida so'rovnoma o'tkazildi.

So'rovnomaning tashkil etishda <https://docs.google.com> platformasi imkoniyatlaridan foydalanildi. So'rovnomada amaldagi maktab direktorlari va direktorlikka nomzod pedagoglardan iborat bo'lgan 106 nafar respondent ishtirok etdi. Jarayonni tashkil etishdan avval so'rovnoma maqsadi va to'ldirish tartibi batafsil tushuntirildi. Savollarga xolis javob berishlari ta'kidlandi. So'rovnoma mustaqil to'ldirilganlarini nazorat qilish maqsadida auditoriyada nazorat ostida savollarga javob qabul qilindi. So'ngra so'rovnoma natijalari matematik-statistik tahlil metodidan foydalanib tahlil qilindi.


Shu bilan birga, o'zbekistonlik o'quvchilarning PISA - 2022 tadqiqotida erishgan natijalarini tahlil qilindi. Avvalo, natijalar tahlil uchun tayyorlab olindi. Bunda ishtirok etgan direktorlardan so'rovnomaga javob bermasdan o'tkazib yuborgan yoki so'rovnomaning bajarish uchun vaqti yetmaganlarining natijasi umumiy natijadan chiqarib tashlandi.

So'rovnomada maktablarda ta'lim sifati bo'yicha ichki monitoring o'tkazilish darajasini aniqlash maqsadida savol berilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, so'rovnomada ishtirok etayotgan 106 ta maktabning barchasida ichki monitoring va baholash jarayonlari tashkil etilib kelinmoqda ekan. Shulardan aksariyatida o'z-o'zini baholash jarayonlari muntazam tashkil etishi aniqlandi (1-jadvalga qarang).

1-jadval		
Maktablarda ichki monitoring va baholash o'tkazilish darajasi		
T/R	MAKTABLAR	ULUSHI
1.	Muntazam ichki monitoring o'tkazuvchi maktablar	80 %
2.	Ba'zan ichki monitoring o'tkazuvchi maktablar	20 %
3.	Umuman ichki monitoring o'tkazmaydigan maktablar	-

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan maktablar ta'lim sifatiga ko'ra uch toifaga ajratilgan: qizil (ta'lim sifati past maktablar), sariq (ta'lim sifati o'rta darajada maktablar) va yashil (ta'lim sifati yuqori maktablar).


So'rovnomma natijalaridan aniq bo'ldiki, ichki monitoring va baholash muntazam (o'quv yili davomida to'rt va undan ortiq marotaba) o'tkazadigan maktablarning 73 %i yashil toifaga, 25 foizi sariq toifaga va 2 foizi qizil toifaga kiruvchi maktablar sirasiga kirishi ma'lum bo'ldi. (1-rasmga qarang.)



1-rasm. Muntazam ichki monitoring o'tkazadigan maktablarning sifat darajasi

Ko'rinadiki, maktabda muntazam ichki monitoring o'tkazish ta'lim sifatida to'g'ridan to'g'ri yuqori darajada ijobiy ta'sir qiladi.

Xuddi shu ko'rsatkich bo'yicha maktabda ichki monitoring ba'zan (o'quv yili davomida bir-ikki marotaba) o'tkaziladigan maktablarda esa farqli natija qayd etilgan. Ba'zan o'z-o'ziga baho beradigan maktablarning 62 %i sariq toifaga, 33 %i yashil toifaga va 5% qizil toifaga kiruvchi maktablar ekanligi aniqlandi. (2-rasmga qarang.)



2-rasm. Ba'zan ichki monitoring o'tkazadigan maktablarning sifat darajasi

Demak, maktabda ichki monitoring va baholash qanchalik kam o'tkazilsa, o'sha maktabda ta'lim sifati tushib borar ekan.

Shundan keyin PISA – 2022 xalqaro baholash dasturida O'zbekiston natijalari tahlilga tortildi va belgilangan gipotezalarni asoslashga harakat qilindi.

Xalqaro baholash dasturida maktab direktorlaridan maktabda ta'lim sifatini aniqlash maqsadida o'z-o'zini baholashi, ichki monitoring o'tkazishini tasdiqlashi yoki inkor etishi so'ralgan. Bunda ichki monitoring va baholash o'tkazish darajasi 3 ga ajratilgan. Maktabda ichki monitoring va baholash vazirlik talabiga asosan yoki maktab tashabbusiga binoan tashkil etiladi, yoki umuman tashkil etilmaydi. Direktorlardan ushbu darajalardan qaysi biriga kirishi so'ralgan.

Ichki monitoring va baholash tashkil etiladigan maktab o'quvchilarining natijalari umuman ichki baholash va monitoring

tashkil etilmaydigan maktablarning natijasidan o'rta hisobda 35 – 40 ball yuqori ekanligi aniqlandi. Shuningdek, vazirlik talabiga asosan ichki monitoring va baholash tashkil etadigan maktablar o'quvchilarining natijasidan o'z tashabbusiga ko'ra baho berish jarayonini tashkil etadigan maktablarning o'quvchilari natijasi esa yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi (2-jadvalga qarang.)

Maktabda ichki baholash tashkil etadigan va umuman tashkil etmaydigan maktab o'quvchilarining natijalari

2-jadval			
Ichki monitoring va baholashning o'tkazilish darajasi	O'qish savodxonligi (ball)	Matematik savodxonlik (ball)	Tabiiy fanlardan savodxonlik (ball)
Vazirlik talabiga asosan ichki baholash o'tkazadigan maktablar	335	363	353
O'z tashabbusiga binoan ichki baholash o'tkazadigan maktablar	336	365	356
Umuman ichki baholash o'tkazilmaydigan maktablar	299	327	319

Ko'rinadiki, o'z tashabbusiga ko'ra ichki monitoring va baholash tashkil etiladigan maktablar o'quvchilarining natijasi boshqa guruhlarga mansub maktab o'quvchilarining natijasidan yuqori ekan.

Tadqiqot natijalari asosida shunday xulosaga kelish mumkin:

- *birinchidan*, maktabda ichki monitoring va baholashni muntazam tashkil etilsa, o'quvchilarning fanlardan o'zlashtirish darajasiga sezilarli ijobiy ta'sir qiladi;
- *ikkinchidan*, maktabda ichki monitoring va baholash kam tashkil etilsa, o'sha maktabda ta'lim sifati tushib boradi;

- *uchinchidan*, maktabda umuman o'z-o'zini baholash tashkil etilmasa, ta'limga salbiy ta'sir qiladi;
- *to'rtinchidan*, maktabda o'z tashabbusiga ko'ra ichki monitoring va baholash tashkil etilsa, nisbatan natija yuqori bo'ladi.

Maktablarda ichki monitoringni o'tkazish tizimini takomillashtirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

- *ichki monitoringni shaffof, obyektiv va izchil o'tkazish uchun o'quv reja va vaqt me'yorlarida uning o'tkazilish tartibi belgilanishi;*
- *ichki monitoring o'tkazish jarayonini raqamlashtirish, topshiriqlar va so'rovnomma bankini yaratish choralarini ko'rish;*
- *maktablarni oliy ta'lim muassasalar va baholash markazlar bilan hamkorliklarini kuchaytirish;*
- *maktablarda ichki monitoringni o'tkazish tartibi aks etgan qo'llanma va uslubiy ko'rsatmalarni hamda yo'riqnomalarni tayyorlab nashr qilish;*
- *oliy ta'lim muassasalari va malaka oshirish markazlarida talaba va o'qituvchilarning ta'lim sifatini baholash va monitoring o'tkazish bo'yicha bilim va ko'nikmalari tizimli rivojlantirish amaliyotini yo'lga qo'yish;*
- *maktablarda ichki monitoringni o'tkazadigan, maktablarni individual rivojlantirish yo'l xaritasini tuzib beradigan mustaqil nodavlat baholash tashkilotlarni ochish choralarini ko'rish kerak.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shinkfield, A. J. (2007). *Evaluation theory, models, and applications*. Jossey-Bass.
2. Fitzpatrick, J. L., Sanders, J. R., Worthen, B. R., & Wingate, L. A. (2012). *Program evaluation: Alternative approaches and practical guidelines*. Boston: Pearson.
3. Fullan, M. (2015). *The new meaning of educational change*. Teachers college press.
4. Hopkins, D. (2014). *A teacher's guide to classroom research*. McGraw-Hill Education (UK).
5. Vahobov, M. M. (2016). *Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitish sifati monitoringini modellash*. Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Abdurahim, Sh. (2024). *Baholash nazariyasi asoslari*. Toshkent: Zebo Prints.

**MUHAMMAD YUSUF IJODINI PIRLS TOPSHIRIQLARI
ASOSIDA O'RGANISH
(sinfdan tashqari o'qish)**



Nigora SAYDAXMEDOVA
NamDU katta o'qituvchisi
El-manzil:
saydaxmedovanigoraxon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida Muhammad Yusuf she'rlaridan namunalarini PIRLS topshiriqlari asosida o'rgatish masalasi yoritilgan. "Vatan" mavzusidagi she'rlari asosida matn ishlab chiqilib, topshiriqlar tayyorlangan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, kommunikativ, ilmiy-metodik, konsepsiya, PIRLS, "Makorim-ul-ahloq", interaktiv, konstruktiv, aql, idrok, fantaziya.

Abstract. This article highlights the teaching of samples from Muhammad Yusuf's poems in the primary education system based on PIRLS tasks. A text and assignments were developed using his poems on the theme of "Homeland."

Keywords: primary education, communicative, scientific-methodological, concept, PIRLS, "Makorim-ul-Akhlaq," interactive, constructive, intellect, perception, imagination.

Аннотация. Разрабатываемыми в данной статье в системе образования являются проблемы обучения на основе заданий PIRLS по образцам стихотворений Мухаммада Юсуфа, а также составлена текст на основе его стихотворений на тему «Родина» и задания.

Ключевые слова: мировоззрение, образование, коммуникативное, научно-методическое, концепция, PIRLS, Макарим-уль-Ахлак, интерактивный, конструктивный, интеллект, восприятие, фантазия.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'limning eng asosiy bo'g'ini sifatida bolaning bilim va tarbiya olishida poydevor vazifasini o'taydi. Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning aqliy rivojlanishida o'ziga xos ahamiyatga ega. Dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, go'zallik va nafosatdan zavqalana olish, milliy urf-odatlarini o'ziga singdirish va ard qilish, ularga rioya qilishga o'rgatadi [1; 5-b.]. Albatta, bu jarayonda o'qish darslari, unda yozuvchi va shoirlar hamda asarlarining o'rganilishi muhim ilmiy-metodik o'rin tutadi. Jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga Muhammad Yusufning ijod namunalarini o'rgatish ham muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shu bois 2-, 3-, 4-sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarida Muhammad Yusuf ijodi haqida ma'lumot berish, uning ayrim she'rlarini o'qitish metodik jihatdan asosli. Sinfdan tashqari o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra boshlang'ich ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari o'qishning maqsadi o'quvchilarning o'qish malakalarini takomillashtirish, muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan badiiy asarlarni to'g'ri baholay oladigan ongli kitobxonni tarbiyalash hisoblanadi [4; 4-b.]. Bu darslarning asosiy vazifasi o'quvchida badiiy kitoblarni o'qishga havas uyg'otish, o'qilgan kitoblar yuzasidan kundalik yuritish olishga o'rgatish, bolalar adabiyotning mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan muayyan tarzda tanishtirishdir. Shu bilan birga sinfdan tashqari o'qish darslarining tub mohiyatini bolalarda ezigulik muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, ularning bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish ham tashkil etadi.

Boshlang'ich ta'limda Muhammad Yusuf ijodining aynan shu jihatlarini e'tiborga olgan holda o'rgatish dolzarb hisoblanadi. Umumta'lim tizimining boshlang'ich maktab bosqichida adabiyot alohida o'quv fani hisoblanmagani uchun Muhammad Yusuf asarlarini o'rgatish bo'yicha soat ajratilmagan. Mazkur muammoga atroflicha to'xtalmasak-da, yo'l-yo'lakay qayd etish kerakki, shoir asarlarini boshlang'ich sinflarning har birida izchil tartibda o'rgatish yo'lga qo'yilishi foydadan holi emas. O'rgatganda ham

shoirning kichik yoshdagi o'quvchilarni o'ylantiradigan, hayratga soladigan, ularni aqliy-hissiy kashfiyotlarga undaydigan "Yigit bo'lsang", "Qizlar", "Binafsha", "Lola", "Erka kiyik", "Jayron", "Bilolim", "O'g'iloy", "Madina" [3; 21, 30, 43-b.] kabi jiddiy asarlarini o'rgatishni rejalashtirish zarur. Negaki, kichikligidan yuksak saviyadagi badiiy yaratqilarni o'qib, undan ta'sirlanib va ulardagi muhim jihatlarini o'zlashtirib o'rganmagan o'quvchilar ulg'ayganlarida ham badiiyati baland asarlarni qabul qila olmaydigan bo'lib qoladilar.

2-sinfda Muhammad Yusuf qalamiga mansub "Vatan madhi" [2; 14-b], 3-sinfda "Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor" she'ri [5; 79-b.] qisqartirilgan (ikkinchi va beshinchi bandlari tushirib qoldirilgan) holda, 4-sinfda "Dunyolarni quchdi o'zbek degan nom" [6; 40-b.] she'ri o'rganish uchun taqdim etilgan. Darslarda yagona topshiriq: "She'rni ifodali o'qing" bo'lgani bois mazkur she'rlarni PIRLS topshiriqlari asosida o'rgatish samaralidir.

Olamga hayrat bilan boqib, undagi har bir diqqatga loyiq hodisaning sababini bilishga qiziqadigan kichik maktab yoshidagi bolaning ruhiy holatiga mos Vatan mavzusidagi she'rlaridan sinfdan tashqari o'qish kitobiga kiritilgani ayni muddao bo'lib, "Vatan nima?", "Vatanni qanday sevisish mumkin?" kabi savollarga jiddiy yondashish haqida o'ylab ko'rishga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shoirning "Elimda alyorim qolur" [3] to'plamida 23 ta vatan mavzusidagi she'rlari jamlangan. Jumladan, "O'zbekiston", "Iqrar", "Vatanim", "O'zingdan qo'ymas, xalqim", "Yoshlar madhiyasi", "Xalq bo'l, elim", "Ey aziz, Vatan", "Izhoril dil", "Ona Turkistonim", "Vatanni seving", "Vatan, yagonasan", "Posbonlarmiz", "O'zbekiston", "Vataning bo'lsin", "Alpomishlar yurti", "Inshoolloh", "O'zbek degan nom", "O'zbekmomo", "O'zbek". "Bayanma"sida 9 ta, "Aytilmagan o'q'shig'larim" kitobida 11 dona, "Bayfo ko'p ekan" kitobiga esa 10 ta vatan haqidagi she'rlari kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-son Farmonida xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi

xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifasi belgilangan[7]. Endilikda boshlang'ich 4-sinf ta'lim oluvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholash uchun PIRLS[9] (Progress in International Reading and Literacy Study) tadqiqoti joriy etildi.

Bunda o'qish savodxonligi darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar uchun 1000 ta so'zgacha, o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400 – 500 ta so'zdan tashkil topgan matn beriladi.

Biz shoirning sinfdan tashqari o'qish kitoblarida berilgan vatan mavzusidagi "Dunyolarni quchdi o'zbek degan nom", "Vatan madhi", "Xalq bo'l, elim", "Yurtim", "Vatanim", "Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor" she'rlariga asoslanib 570 ta so'zdan iborat matn tayyorladik.

Bobolarim yotar sajdagohim

Bir kuni onam ochiq ayvonda paxta gulli choynak-piyolada opam damlagan ko'k choydan bir ho'plamdan ichib o'tirardi. Men Muhammad Yusufning "Vatanim" she'rini qayta-qayta o'qib yod olishga harakat qilardim. Kitobni yopdim-da, onamning oldiga chopib borib, tizzasiga bosh qo'yib, chalqancha yotib oldim. Onam boshimni silay boshladi. Dunyodagi eng mehribon qo'ldan mahkam tutdim-da, savol berdim:

– Onajon, sizningcha, Vatan nima? - Onamning yuzida avval ko'rmaganim ajib o'zgarish (ko'zda yosh, yuzda tabassum) qorachig'da aylanayotgan yosh maskanidan uzilarmi deb, qo'rquv ila boqib turibman.

– Qandoq tushuntirsam ekan, – deya gap boshladi u nihoyat. - Otam yo'q, aniqrog'i, eslolmayman ham. Onamning aytishicha, go'dakligimda vafot etgan. Tengqurlarim "dada" deb gapirsa yoki chaqirsa, og'ziga qarab turardim. Chunki men bu baxtdan mahrum edim. Ba'zi otalar ishdan qaytgach, o'rtoqlarimga nimadirlar (shokolad, saqich va boshqa shirinliklar)jolib kelar, yonida bo'lsam, albatta, menga ham tutqazishardi. Hozir ham eslasam qo'shni amaklardan minnatdor bo'laman. Onam bir yutinin olib, davom etdi:

"Metodist" 2025-yil 2-son

yolg'iz qolgan paytlarim, berkinib, hech kimga ko'rsatmay dada...dada... deya chaqirib olardim. Vujudimdan o'tilgan o't ko'z yosh bo'lib yuzimni yuvardi. Biroq o'z ko'z yoshimda o'zim cho'milib qolaverardim.

Shu yerga kelganda o'pkam to'lib, tomog'imga achchiq bir narsa qadaldi, onamga bir narsalar demoqchi edim-u, yig'lab yubormaslik uchun onamning qo'llariga mahkamroq yopishdim.

... Otam qo'llari tekkan paxsa devorlar – Vatan! Onam esa uzzukun tomorqada yoki tirikchilik tashvishida... Men uy yumushlarida onamga ko'maklashib, oilaning tirikchilik manbai yagona sigirning sut, qatiqlarini sotish uchun qishloq ko'chalarida katta bo'ldim. Onamning qatiq, sut sotib yurishlariga hech yo'l qo'ymasdim, nimagadir or qilardim. Menga esa hammasi tanish, ariq bo'yidagi momaqaymoqlar ham kulib kutib, kulib kuzatishardi. Bu mitti quyoshchalarni ko'rib ko'nglim yorishardi. Mana, mening Vatanim! Mening Vatanim, mening qishlog'im, bo'ylarimizni ko'rmagan otam, tol beshik uzra hasrati, dardini allasigagina joylagan munisim onam, menga ertaklar so'ylab ardoqlagan zamin! Vatan – bobolarim yotgan sajdagohim! Yalpizlar yastangan dala-dashtlarim! Osmonga yuksalgan oq teraklarim, Vatanim men bormanmi, yo'qmi, mangu chamanim.

Ajdodlarim qo'nim topgan qadim ona tuproq. Farzandlarimni alqab kuzatib, ilhaq kutguvchim.

Bolam! Seni qorachig'ingda aks etgan bir parcha bulut, bir parcha yo'l Vatan huzuriga eltiguvchi nur.

Mening Vatanim – mening oilam, bu – otang, akang, opalaring va sen.

Qishlog'im: ko'kda ketayotgan qushlar, bog'lar, tog'lar, soylar, ko'priklar, tanish teraklar. Osmondagi avval pushti, so'ngra oltindek tovlanayotgan pag'a bulutlar. Vatanim o'tmishim, bugunim va kelajagim! Vatanim kelsam ham kelgan yog'im, ketsam ham asqotar qarorgohim.

Bolajonim, kel, senga Vatan tushunchasi, uning muqaddasligini buyuklarimiz hikmatlari orqali tushuntirib beraman. Mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy hazratlarining zamondoshi muarrix Xondamir "Makorim-ul-axloq" kitobida quyidagi voqeani bayon etadi: Bir kuni hidoyat nasabli Amir (Alisher Navoiy) asr namozini

"Metodist" 2025-yil 2-son

o'qigandan so'ng har kunlik odatiga xilof ravishda, jamoat namoziga kelmagan kishilarni surishtirishga kirishmasdan, shosha-pisha o'zlarining shaxsiy bog'chalari tomon yo'l oldilar va unchalik vaqt o'tmasdan, tezda qaytib keldilar. Bundan ul hazratning xizmatida bo'lgan mulozimlardan ayrimlari hayron bo'ldilar. Ul hazrat bu holatni tushunib, o'zidan gavharlar sochuvchi tillari bilan quyidagi so'zlarni aytdilar:

– Masjidga kelayotgan chog'imda falon joyda to'xtab, tahorat qilgan edim. Namoz chog'ida (jamoat bo'lib namoz o'quvchilar safida) turganimda yelkanga yopishib olgan bir chumolini ko'rdim. Bildimki, tahorat qilgan joyimda menga ilashib olgan ekan. Agar yelkamdan tushib ketib, unga biror ozor yetsa va uyiga boradigan yo'lni topolmay qolsa, vatandan judo bo'lsa, uvoliga qolamanmi, deb qo'rqdim. Shuning uchun ham namoz tugaganidan so'ng tezda o'sha tahorat qilgan joyimga bordim-da, uni o'z uyasi oldiga qo'yib yubordim va ko'nglimni (o'zim bilmagan holda Xudoning bir jonivoriga) jabr-zulm qilib qo'yish xavotiridan xalos qildim. Ul hazratning xizmatkorlari bu hikoyatni eshitib, uning benihoya rahmdilligidan hayrat dengiziga g'arq bo'lishdi hamda tillariga (ul hazratning haqlariga) duo-yu hamd-u sanolar keltirishdi. Vatan tarkini bir nafas aylama, o'ylama! [8].

Alqissa, Navoiy hikmatlari inson qalbini ma'nan boyituvchi, hayot atalmish sayohatida unga yo'l ko'rsatuvchi sodiq, samimiy yo'ldoshdir. Vatandan judo bo'lmoq, o'zlikdan judo bo'lmoqdir. Hasharotning ham Vatanidan ayro tushmasligini, sarsan bo'lmasligini o'ylab, hasharot misolida insonlarga Vatanga muhabbatli, sadoqatli bo'lishni uqtirib o'tilyapti.

Shu hikoyadan so'ng qaddimni roslab: – Onam, mening ham fikrlarimni eshiting, – dedim. Sizing hikoyalarigizni eshitib, shoir M. Yusufning she'rlarini o'qib, qalbm muhabbatga to'lib toshdi va shunday xulosaga keldim, xalq yonida bo'lishga Navoiyni bergan, xalqqa tumor qilib Mashrabni bergan, Muqannadir qorachig'i olovlariga sachragan, buyuklarin meniki deb, butun dunyo da'vo qilgan ulug'imdir Vatanim! Qo'lingizdagi piyola bu - mening Vatanim! Onamning ko'zlari hayrat ila menga boqdi. Ha, ha, bu piyola mening Vatanim! Chunki piyola Vatan bag'ridan, tuprog'idan yaralgan! Qo'ynimdagi iftxorim, Bo'ynimdagi tumorim Vatan!

"Metodist" 2025-yil 2-son

Onam peshonamdan o'pib, mehri ila siyladi... (570 ta so'z)

"Bobolarim yotar sajdagohim" matni yuzasidan quyidagi topshiriqlar beriladi.

1. Voqea kim tomonidan hikoya qilingan?

A. Bola.

V. Ota.

C. Ona.

D. Do'sti.

2. Hikoya boshida voqea nimadan boshlandi?

A. Hikoya ichida hikoyadan.

B. Ona ko'k choy ichib o'tirardi.

C. Qatiq, sut sotib yurishdan.

D. Bola kitob o'qib o'tirardi.

3. Ayting-chi, onangizda ko'zda yosh, yuzda tabassum holatini kuzatganmisiz? Qachon, nima uchun? Fikrlaringizni yozing.

Bolaning onasi nega qo'shni amakilardan minnatdor bo'ldi?

A. Boshidan silangani uchun.

B. Uni ham o'ksitmay shirinliklar bergani uchun.

C. Qo'shni bo'lgani uchun.

D. U hech kimni unutishni xohlamaydi.

4. "U bir yutiniib olib, davom etdi: yolg'iz qolgan paytlarim, berkinib, hech kimga ko'rsatmay dada...dada... deya chaqirib olardim. Vujudimdan o'tilgan o't ko'z yosh bo'lib yuzimni yuvardi. Biroq o'z ko'z yoshimda o'zim cho'milib qolaverardim".

Nega u berkinib "dada" deydi? Nima sababdan u o'zini shunday his qilganini yozing. "Ko'z yoshimda o'zim cho'milib" jumlasining mazmunini tushuntiring.

7. Hikoyadagi bola timsolining eng muhim xususiyatlarini belgilang.

1. Otasidan erta ajralgan yetim bola.

2. Vatanini qadrlaydigan inson.

3. Vatan so'zini tushuna olmaydigan "g'o't" bola.

4. Dunyoqarashi keng bola.


5.

5-qatorga xohlagan fikrlarni yozing, lekin mantiq buzilmasin.

"Metodist" 2025-yil 2-son

O'quvchi belgilab bo'lgandan keyin har bir variant ballar asosida ko'rib chiqiladi. 1-, 2-, 3-javoblarni tanlagan o'quvchi – atrofdan yaxshilik qidiradigan inson, 1-, 2-, 4-raqamlarni tanlab 5-topshiriqqa mustaqil fikr yoza olgan o'quvchilar atrofdan yaxshilik qidiradi, ezgulik ulashdigan insonlar. Agar aralash holda belgilasa, realist yoki keng fikrlaydigan o'quvchi sanaladi.

7. Hikoya qilayotganda onaning ruhiyati qanday edi? 5 ta so'z bilan ifodalang.



8. Hikoyaga asoslanib, mavzuga mos rasm chizing. Vatan deganda siz nimani tushunasiz? Tasavvuringizni ishga soling. Sizing nazaringizda Vatan nima? Xohlagan narsangiz bilan Vatan tushunchasini izohlang (surat, so'zlar, belgilarda). Hikoyadagi bolaning tasavvuri esa:



9. Hikoya ichidagi hikoya qanday bog'liqlikda? Quyidagi gaplardan qaysilari 2-hikoya matnidani olingan?

"Metodist" 2025-yil 2-son

	Gaplar	X	✓	X	✓
1.	Bolam! Sening qorachig'ingda aks etgan bir parcha bulut, bir parcha yo'l Vatan huzuriga eltuvchi nur.	X			
2.	Nimagadir bir kuni tarki odat qilib, qayergadir shoshilib borib keldilar.				
3.	Ajdodlarim qo'nim topgan qadim ona tuproq. Farzandlarimni alqab kuzatib, ilhaq kutuvchim.				
4.	Muarrir Xondamir "Makorim-ul-axloq" kitobida quyidagi voqeani bayon etadi:				
5.	Ikki yelkamga salom berganda ko'rdimki ustimda bir chumoli turibdi.				
6.	Bu chumoli tahorat olganim joydan chiqqanini bildim va bir jonzo'ni oshiyonidan judo qilmoqning gunohini, yukini o'ylab uni o'z joyiga qo'yib keldim.				

10. Ona ■ bola ■ Muhammad Yusuf ■ Navoiy ■ obrazlariga xos xislatlarni tanlangan ranglarda bo'yang.

mehribon	o'ychan	andijonlik	foniy
oriyatli	yosh	aqli	mushfiq
mutafakkir	ko'zi yoshli	baxtli	qiziquvchan
bilimli	sevimli	zullisonayn shoir	shoir

72

"Metodist" 2025-yil 2-son

"Xamsa" muallifi	avliyo	"Ulug'imsan, Vatanim" she'rining muallifi	munis
------------------	--------	---	-------

O'quvchining matn bilan ishlashi jarayonida o'quvchi va matn orasidagi muloqot orqali (shuning uchun ham bu jarayon interaktiv deyiladi) o'quvchi ma'noni yaratadi (shuning uchun ham bu jarayon konstruktiv: inglizcha "construct" - yaratmoq deyiladi). O'quvchi bu jarayonning faol ishtirokchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Turli o'yin, metod, usullar orqali dars tashkil etish bolalarga yordam beradi, tarbiyalaydi, rivojlantiradi, xotira, e'tibor, tasavvur, aql, fantaziya, til, reaksiya, mehnatsevarlik, halollik kabi fazilatlarini rivojlantiradi.

PIRLS o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. - Toshkent, 2010.
2. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent, 2009.
3. Мухаммад Юсуф. Элимда алёрим қолур. - Тошкент, 2017.
4. Sinfdan tashqari o'qish kitobi: 2-sinf uchun o'quv qo'llanma. / tuzuvchi: Avvalboeva I. - Toshkent: Yurist-mediemarkazi, 2019.
5. Umarova M., Hamraqulova X., Tojiboyeva R. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. - Toshkent: O'qituvchi, 2016.
6. Aydarova U., Azizova N. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. I qism. - Toshkent: Novda Edutainment, 2023.
7. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. - Toshkent, 2019.
8. Xondamir.

Makorim-ul-axloq.
<https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/alisher-navoiy-hikmatlari>.

9. <https://www.xabar.uz/talim/ozbekiston-pirls-2021-xa>

73

"Metodist" 2025-yil 2-son

ONA TILI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TA'LIM



Nigora ERKINOVA
Oriental universiteti dotsenti v.b.
El-manzil:
nigoraerkinova68@gmail.com



Azizabonu KARIMJONOVA
Oriental universiteti talabasi
El-manzil:
azizakarimjonova9@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quv maskanlarida o'quvchilarni kreativ fikrlash, mantiqli mushohada yurita olish kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion ta'limning o'rni, shu bilan bir qatorda, masofaviy ta'lim usullarining o'ziga xos xususiyatlari borasida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: so'z, so'zning sofligi, xalqonalik, etimologiya, so'zning qudrati, ona tili, innovatsion ta'lim, masofaviy ta'lim.

Annotation. This article analyzes the role of innovative education in the development of students' creative thinking, reasoning, competence and skills, as well as the specifics of distance learning methods.

Key words: word, purity of the word, folklore, etymology, power of the word, native language, distance learning.

Аннотация. В данной статье анализируется роль инновационного образования в развитии у учащихся творческого и логического мышления, рассуждения, компетентности и навыков, а также специфика дистанционных методов обучения.

74

"Metodist" 2025-yil 2-son

Ключевые слова: слово, чистота слова, фольклор, этимология, сила слова, родной язык, дистанционное обучение.

Zamonaviy ta'lim bu - o'quv jarayonida yangi pedagogik texnologiya va metodlar, axborot texnologiyalari va innovatsion yondashuvlardan foydalanishga asoslangan ta'lim tizimidir. Ushbu tizim o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ijodiy fikrlash, tanqidiy yondashuv va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Zamonaviy ta'limning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- 1) *texnologik innovatsiyalar:* interaktiv ta'lim platformalari, masofaviy kurslar va raqamli resurslar orqali o'qitish;
- 2) *individual yondashuv:* ta'lim oluvchining fanga bo'lgan qiziqishlari va qarashlariga moslashtirilgan holda o'qishi uchun individual rejalashtirish;
- 3) *hamkorlik va guruhlarda ishlash:* o'quvchilarning hamkorlikda ishlash, muammolarni hal qilish va o'rganish jarayonini takomillashtirish;
- 4) *kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish:* o'quvchilarga yangi g'oyalarni tadbiiq etish va mustaqil fikrlashni rag'batlantirish;
- 5) *hayotiy tajribalari asosida o'rganish:* ta'lim jarayoni faqat formal maktabda bilim olishga bog'liq emas, balki hayotiy tajribaga ega bo'lish va professional rivojlanish ham muhim hisoblanadi.

Yangi texnologiyalarga sarflanayotgan mablag'lar qay darajada o'zini oqlashini, ularning ta'lim sifatini oshirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalari hamda masofaviy ta'limni rivojlantirishga qanday ta'sir ko'rsatishini [1; 12-b.] bilishimiz kerak.

Davlatimiz rahbari 1-oktabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlaganidek, "...har bir oila, har bir bola hayoti maktab bilan bog'langan, bu masala davlatning, jamiyatning eng muhim ishidir"[6]. Ona tili darslarini samarali tashkil etishda zamonaviy ta'lim metodlari o'quv jarayonini qiziqarli va interaktiv qilishga qaratilgan innovatsion yondashuvlardir. Bu metodlar

75

"Metodist" 2025-yil 2-son

o'quvchilarning ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, muammolarni mustaqil hal qilish va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'limning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan didaktik jarayonni to'g'ri tashkil etishiga bog'liq. Didaktik jarayon barcha ta'lim muassasalarida pedagoglar uchun eng muhimi bo'lib, bu jarayon shaxsning tanlovi amalga oshirilishi uchun muhim yo'nalish hisoblanadi. Mazkur jarayonda muayyan o'quv vositalari o'zlashtiriladi va qo'llaniladi. Didaktik jarayonning tarkibi 3 ta o'zaro aloqador qismlarni o'z ichiga oladi: 1) o'quvchilarni yo'naltiruvchi; 2) o'quvchilarning shaxsiy bilish faoliyatini amalga oshiruvchi; 3) o'qituvchi tomonidan mazkur faoliyatning boshqarilishini ta'minlovchi qismlar. Ushbu qismlar barcha didaktik jarayonlarda birdek amal qiladi [4; 6-b.]. To'g'ri ta'kidlanganidek, "Yuqori sinflarda, xususan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari katta ko'rgazmalilikni yanada kengroq qamrovda tashkil qilish maqsadga muvofiq. Turli timsoliy belgilar, rangli jadvallar, lingofon, magnitofon, diktofon, radio va televideniye ko'rsatuvlari, o'quv- o'rgatuv texnikasining so'nggi yutuqlari: kompyuter, multimedia, kodoskop kabilardan samarali foydalanish talabaning ijodiy va nutqiy barkamolligini ta'minlash, ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishga shart-sharoit yaratadi[2; 30-b.]."

Quyida zamonaviy metodlarning asosiy turlari va ularning afzalliklarini keltirib o'tamiz.

Brenreyting metodi – bu o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tahlil qilish, baholash va rivojlantirish uchun interfaol yondashuv. Ushbu metodda o'quvchilar turli darajadagi vazifalarni bajarar ekan, ularga beriladigan baho ballar shaklida ko'rsatiladi va bu reyting asosida umumiy natija chiqariladi. Ona tili va adabiyot darslarida bu usul orqali o'quvchilarning fikrlashi, yozma savodxonligi, grammatik bilimlari rivojlantirilsa, tabiiy fanlarda modda xususiyatlari, laboratoriya jarayonlarini yozishda foydalaniladi. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan tanlangan savollarga umumiy emas, ilmiy jihatdan asoslangan holda javob berishlari kerakligi uqtiriladi. Bu usulni ko'llaganda o'quvchilar

"Metodist" 2025-yil 2-son

uchun savollarga ilmiy javob olish imkoniyati ham yaratilgan bo'lishi kerak (ilmiy manbalar taqdim etiladi) [5; 15-b.].

Interaktiv metodlar ta'lim oluvchilarni dars jarayonlariga faol qatnashishlariga, ularning diqqatini jamlashga yordam beradi. **"Aqliy hujum"** guruh bo'lib g'oyalar ishlab chiqishda samarali metod sanaladi. "Savol-javob" mavzuni o'quvchilarning fikrlarini o'rganish orqali tushuntirish usulidir. Bundan tashqari, rolli o'yinlar va hayotiy vaziyatlar yaratish ham o'quvchilarni muammoni hal qilishga o'rgatadi. Birgalikda berilgan topshiriqlarni bajarish va bir-biridan o'rganishda kichik guruhlariga bo'linib ishlash ham yaxshi natija beradi.

Ta'limni o'yin shaklida tashkil qilish o'quvchilarning qiziqishini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy o'yin dasturlari yordamida dars o'tish (masalan, Kahoot, Quiz) o'quvchilar uchun qiziq. Bunda ular ushbu dasturlarga savollar tuzib, biriktirish orqali texnik vositalarda ishlash ko'nikmalarini ham egallaydilar. Dars jarayonini qiziqarli tashkil etishda virtual o'yinlarning ahamiyati katta. Darslarda virtual o'yinlardan foydalanish zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan biri bo'lib, ta'lim jarayonini qiziqarli va interaktiv tarzda tashkil etishga yordam beradi. Virtual o'yinlardan foydalanishning bir necha afzalliklari mavjud bo'lib, ulardan biri – o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirish. Virtual o'yinlar, ularni faol ishtirok etishga undaydi. Interaktivlik o'quvchilarga o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatini beradi. Yana bir afzalligi baholashning qulayligidir. O'yin ichidagi topshiriqlar orqali o'quvchilarni avtomatik ravishda baholash mumkin. Ona tiliga xos topshiriqlarni ta'limiy platformalarda joylash orqali grammatik topshiriqlarni bajarish mumkin.

Platformaga joylashtirilgan videomateriallar o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltiribgina qolmay, ma'lumotlarni yig'ish, tadqiqotchilik ko'nikmalaridan foydalangan holda muammo yechimini izlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, o'quvchilardan yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lishni talab etadiki, bunga tahlil, sintez, o'z fikrlash jarayonini tushuna olish (metakognitiv fikrlash), muammolarni yechish va baholash kabi qobiliyatlarni shakllantiradi. Aksariyat o'qituvchilar o'z o'quvchilari bu borada ular istaganchalik mohir fikrlovchi

"Metodist" 2025-yil 2-son

emasliklarini tan oladilar. Bugungi o'qituvchi zamonaviy bilimlar bilan birga fanlar o'rtasidagi aloqalarni ham mukammal o'zlashtirib, ta'lim sifatini oshirish uchun dars jarayoniga tadqiq eta olishlari lozim [3; 95-b.].

Masalan, ta'lim maskanlarida "Fe'ning ma'noviy guruhlari"ni [7; 55-b.] o'rganishda quyidagi topshiriqni ta'limiy platforma orqali bersa bo'ladi.

1-topshiriq.	
1-qatorda berilgan fe'llarni jadvalga to'g'ri joylashtiring.	
ming'irlamoq	Jismoniy faoliyat fe'llari
kashf qilmoq	
yaraqlamoq	Aqliy faoliyat fe'llari
yaratmoq	
ijlmaymoq	Nutqiy faoliyat fe'llari
kesmoq	
so'zlamq	Holat fe'llari
chopqillamoq	

To'g'ri javob:	
ming'irlamoq	Jismoniy faoliyat fe'llari
kashf qilmoq	
yaraqlamoq	Aqliy faoliyat fe'llari
yaratmoq	
ijlmaymoq	Nutqiy faoliyat fe'llari
kesmoq	
so'zlamq	Holat fe'llari
chopqillamoq	

2-topshiriq.

Berilgan gaplardagi harakat fe'llarini toping [7; 57-b.].

1. U sahnadan chaqqonlik bilan sakrab tushdi-da, eshikka qarab yo'naldi.
2. Qahramon jangchilar nemis-fashist bosqinchilariga qarshi shiddatli jang olib bormoqda!
3. Oq yaktak kiygan Oqsoqol buva qaddini g'oz tutib, ayvon tomon yurdi.
4. Popukqandlar yerga tushib, sakrab ketdi.

To'g'ri javob:

"Metodist" 2025-yil 2-son

1. U sahnadan chaqqonlik bilan **sakrab tushdi-da**, eshikka qarab **yo'naldi**.
2. Qahramon jangchilar nemis-fashist bosqinchilariga qarshi shiddatli jang **olib bormoqda!**
3. Oq yaktak kiygan Oqsoqol buva qaddini g'oz tutib, ayvon tomon **yurdi**.
4. Popukqandlar yerga tushib, **sakrab ketdi**.

Mazkur grammatik topshiriqlar asosida bilish muhim bo'lgan jihat fe'llarning qanday harakat-holatni ifodalashiga ko'ra nutqiy faoliyat fe'llari, aqliy faoliyat fe'llari, jismoniy faoliyat fe'llari, holat fe'llari kabi ma'no guruhlariga ajratilishidir.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishlarida tahliiliy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish metodlari ham yaxshi samara beradi. Turli mavzulardagi debatlar ham o'quvchilarning o'z fikrlarini himoya qilib, dalillar keltira olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam bersa, "Klaster" usuli ma'lumotlarni grafik shaklda tartibga solib o'rganishga zamin yaratadi. Berilgan mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni aniqlash va ular orasidagi bog'liqlikni topishda qo'llaniladi.

FE'LNING MA'NO GURUHLARI


NUTQIY FAOLIYAT FE'LLARI	AQLIY FAOLIYAT FE'LLARI
<i>gapirmoq, gapirmoq, pichirlamoq, demaq, so'zlamq, so'ramoq, yalimoq, o'limoq, yo'lvarmoq, vaxsimoq.</i>	<i>o'ylamoq, fikrlamoq, xavol qilmoq, tanavot qilmoq, hukm chiqarmoq, o'ynat bormoq, ko'z oldiga keltirmoq.</i>
JISMONIY FAOLIYAT FE'LLARI	HOLAT FE'LLARI
<i>chismoq, yuzmoq, yuzmoq, qurmoq, yuzmoq, bino qilmoq, mox solmoq.</i>	<i>titarmoq, ishtirarmoq, sevimmoq, jiltsarmoq, to'ldirmoq.</i>

Hozirgi kunda an'anaviy ta'limni onlayn resurslar: elektron darslik, videodars va interaktiv testlar bilan boyitilishi o'quvchilarning mavzuni to'liq o'zlashtirishlari uchun katta

"Metodist" 2025-yil 2-son

ahamiyatga ega. Ushbu jarayon masofaviy va sinfdagi darslarni birga olib borishda ham yaxshi natija beradi.

Masalan, Kahoot dasturi orqali test yechish o'quvchi uchun yangi hamda qiziqarli jarayon.



Kahoot.com – o'yinli o'quv platformasining afzalliklaridan biri shuki, turli mavzu doirasida test savollari tuzish mumkin va qiyinlik darajasiga qarab vaqti belgilanadi. Jarayon yanada qiziqarli bo'lishi uchun test savoliga mos rasmlarni joylashtirish maqsadga muvofiq. Berilgan muddatda kim birinchi bo'lib savolga javobni to'g'ri belgilasa, o'sha g'olib bo'ladi.

Xulosa shuki, ta'lim maskanlarida yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur shart-sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Jamiyat ilmiy darajasining yuqoriligi mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, biron-bir mamlakat o'z biluv imkoniyatlariga tayanmay, odamlar ongi, tafakkurida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay, xalqning savodxonlik ruhini uyg'otmay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi.

O'quvchilarni mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida ona tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga oid masalalar bo'yicha zaruri bilimlar bilan qurollantirish maqsadga muvofiq. Nazariy mavzular sifatida ajratilgan nazariy ma'lumotlar yagona uslubiya bo'yisundirilgan

"Metodist" 2025-yil 2-son

tarzda ta'lim oluvchining ham nazariy bilimlarini oshirishga, ham nutqiy savodxonlik bo'yicha amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim. Har bir xalqning milliy tili o'zining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarini ifodalaydigan va avloddan avlodga meros qoladigan asosiy vosita sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omonov H. T., Xo'jayev N. X. va b. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2009.
2. To'xliyev B. va boshq. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2006.
3. Radjiev A. va boshq. PISA, PIRLS, TIMSS Xalqaro baholash dasturlariga maktab o'quvchilarini tayyorlash mexanizmlari. Metodik qo'llanma. – Toshkent, 2022.
4. Matchonov S. va boshq. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent, 2021.
5. Parpiyeva M. Adabiyot darslarida interfaol usullardan foydalanishning samaradorligi. Metodik qo'llanma. – Namangan, 2024.
6. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichi-muhokama-q>
7. Ona tili. 6-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova va boshq. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.

"Metodist" 2025-yil 2-son

LIRIK ASARLAR TAHLILIDA SHAKL VA MAZMUN MUNOSABATI (R. Hamzatovning "Ona tilim" she'ri misolida)

Nodira ALLAMBERGENOVA
Nukus DPI dotsenti

El-manzil: farzona_n@mail.ru



Annotatsiya. Mazkur maqolada lirik asarlar tahlilida shakl va mazmun mutanosibligi haqida so'z yuritiladi. Rasul Hamzatovning "Ona tilim" she'ri tahlili misolida lirik asarlar tahlili uchun muhim belgilar, bosqichlar yangicha yondashuvlar asosida ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: lirik tur, she'r, she'riyat, so'z, tuyg'u, lirik qahramon, tahlil, shakl va mazmun.

Annotation. This article discusses the balance of form and content in the analysis of lyrical works. On the example of the analysis of Rasul Hamzatov's poem "My Native Language", important signs and stages for the analysis of lyrical works are shown based on new approaches.

Keywords: lyric type, poem, poetry, word, feeling, lyrical hero, analysis, form and content.

Аннотация. В статье рассматривается вопрос соотношения формы и содержания при анализе лирических произведений. На примере анализа стихотворения Расула Хамзатова «Мой родной язык» показаны важные признаки и этапы анализа лирических произведений на основе новых подходов.

"Metodist" 2025-yil 2-son

Ключевые слова: лирический жанр, стихотворение, поэзия, слово, чувство, лирический герой, анализ, форма и содержание.

Lirik asarlar adabiyot uchun alohida hodisa hisoblanadi. "Bu turdagi asarlar uchun asosiy narsa tuyg'u va hissiyotga yo'g'rilgan hayotiy hikmat ifodasini berishdir. Bu turdagi asarlarda voqealar tasviri, xarakter mantig'i emas, ruhiy holat va hissiyot ifodasini berish, tuyg'ular samimiyatini muhrlash muhim hisoblanadi" [2; 264-b]. Shu bois ham lirik asarlar tahlili birmuncha murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib tahlil qiluvchidan kuchli nazariy bilim, muayyan ko'nikma va malakalarga egalikni talab qiladi. Asqad Muxtor "Uyqu qochganda" kitobida she'r tahlili bo'yicha shunday fikr bildiradi: «She'rni tahlil qila boshlasalar, g'ashimga tegadi. Bahorgi sof havoning kimyoviy tarkibini ham tekshirish mumkin. Ammo undan ko'ra, shunday ko'krak to'latib nafas olgan yaxshiroq emasmi?» [1; 9-b.]

Lirik asarlar tahlilida hissiyot birinchi o'rinda turar ekan, bunda anglash, tushunishdan ko'ra his qilish muhimroq hisoblanadi. Chunki ayrim hislar tushinilmaydi va tushuntirilmaydi, ularni faqat tuyish mumkin. Rasul Hamzatovning mana shunday inja hislar, nozik tuyg'ular asosiga qurilgan she'rleri ham, aslida, tahlildan ko'ra his qilinganda kitobxonga ko'proq zavq beradi. Shunday bo'lsada adabiy ta'limda lirik asarlarni o'quv-didaktik tahlilga tortishga ehtiyoj bor. Shoirning 7-sinf «Adabiyot» darsligida "Ona tilim" she'ri berilgan [4; 108-115-b.] bo'lib, quyida mazkur she'r tahlili yuzasidan tajribalarimizni o'rtoqlashamiz.

She'riy asarlarni tahlil qilish boshqa asarlar tahlili kabi ifodali o'qishdan boshlanadi. Buni professor B. To'xliyev ham alohida ta'kidlaydi: «She'riy asarni anglash, undagi muallif ko'zda tutgan niyatni, maqsad va vazifalarni tushunib yetish, she'r g'oyasining mag'zini chaqish uni o'qishdan, yanada aniqrog'i ifodali o'qishdan boshlanadi» [5; 80-b.].

Metodist Q. Husanboyeva she'riy asarlar tahliliga kirishishda ularning o'qituvchi tomonidan yoddan ifodali o'qilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydi: «Lirik asarlar ustida ishlash darslarining mas'uliyatli lahzalaridan biri matni, albatta, o'qituvchi tomonidan

"Metodist" 2025-yil 2-son

yoddan ifodali o'qilishi va o'quvchilarning uni tinglay olishidir. Shunda sinfdagi hamma o'quvchilar bir necha daqiqa she'rdan olingan estetik ta'sir og'ushida qoladilar. Mutolaadan keyingi bir necha soniyalik tin olish o'quvchiga shunday imkoniyatni beradi» [3; 235-b.]. Mana shu jarayondan keyin, o'qituvchi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda she'r tahliliga kirishadi.

Ona – shunchalar muqaddas zotki, natijada bu tushunchani anglatuvchi tovushlar ham muqaddaslik kasb etgan. Bu so'zning hamma so'zga qo'shilaiyermasligi shundan. Bu so'z faqat o'zi kabi muqaddas tushunchalar bilangina birikma hosil qiladi. Ona Vatan, ona yurt, ona til, ona tuproq kabi.

*Ona tilim – onajonim tili bu,
Beshikdanoq singgan jonu quloqqa.
El-u yurtim, xonumonim tili bu,
Qadimlikda o'xshar ona tuproqqa.*

(Mirmemir)

Rasul Hamzatov ham xuddi shoir Mirmemir kabi she'rga "Ona tilim" deb sarlavha qo'yg'an. "Til" so'ziga qo'shilgan qarashlilik shakli tilning birinchi shaxsga tegishlilik ma'nosidan tashqari, o'zi birikkan so'zga ijobiy ma'no semalarini ham yuklaydi. Natijada shoirning "Ona tilim" birikmasiga singdirgan iliq hislari she'rxonga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

She'r to'rtlik shaklida yozilgan. To'qqiz banddan, o'ttiz olti misradan iborat. Bandlarning qo'fiyalanish tartibi o'ziga xos. Har bir bandning toq misralari o'zaro, juft misralari o'zaro ohangdoshlik kasb etgan. Sodda barmoq vaznida yozilgan. Turoqlanish tartibi 6–5=11 shaklida. Ona tilning go'zalligi va shoirning mahorati she'rni yanada o'qimishli qilgan.

She'r lirik qahramonning tush ko'rish voqealari bilan boshlanadi. Odatda, mumtoz shoirlar tushdan badiiy vosita sifatida foydalanishadi. Lirik qahramon tushida o'zining o'lib qolganligini, quyosh tig'ida va tog'lar orasida o'lib yotganligini ko'radi:

*Ajabo! Tush degan narsa qiziqda,
O'lib qolganmishman tushda nogahon.*

"Metodist" 2025-yil 2-son

*Ko'ksimda qo'rg'oshin, quyosh tig'ida,
Tog'lar orasida yotibman bejon.*

She'rning ikkinchi bandida qahramon sharqiroq soy ovozini eshitadi. Soyning uzoqligi atrofning kimsasizligiga ishora. Biroq kimsasiz bo'lishiga qaramasdan, bu joy dilbarligiga maftun bo'ladi va ona tuproqqa xoki qo'shilishidan mamnun bo'ladi. Axir tuproq ajdodlar xoki qo'shilgani uchun ham muqaddasku. Lirik qahramonga tanasining o'zga yurt tuprog'iga emas, o'z ona yurti tuprog'iga qo'shilayotgani taskin beradi:

*Uzoqda sharqirab saylar oqmoqda,
Borliqda bir ajib dilbarlik hokim.
Men esam o'ylayman yotib tuproqda:
Mana shu tuproqqa qo'shilar xokim.*

She'rning uchinchi bandida qahramon kayfiyatining o'zgarishi, o'z holidan yozg'irishi aks etadi. Tabiat tasviri ham qahramon kayfiyatiga mos shaklda tasvirlanadi. Cho'qqida qurquragan burgut ovozi biroz vahimaliroq va ingrayotgan ohu ovozi ayancliroq tuyiladi. Chunki burgut go'shtxo'r qush bo'lib, balki, ohuning o'limini kutayotgandir!? Bu inson va tabiatni uyg'unlikda tasvirlanishi bo'lib kitobxonga uning holatini yanada yorqinroq tushunish imkonini beradi:

*Men o'lib yotibman, kimsasiz, unut,
Hech kimsa qayg'urmas va chekmas yohu.
Faqat cho'qqilarda qurqurar burgut,
Faqat vodiylarda ingraydi ohu.*

Navqiron yoshida bu dunyoni tark etayotgan lirik qahramonning holati, er yetgan yoshida o'q yeb vafot etishi va uning yonida yaqinlarining va hatto yig'ichining yo'qligi har bir kitobxonni qayg'uga botiradi:

*Navqiron yoshimda bo'ldimku ado,
Otash yuragimni o'ydi axir o'q.*

"Metodist" 2025-yil 2-son

*Na onam, na yorim beradi sado,
Do'st tugul hattoki yig'ichi ham yo'q.*

She'rning keyingi bandlarida qahramon ruhiyatidagi yozg'irish fig'onga aylanadi. Fig'on, odatda, yorga yetish g'ami va ayriliq azobidan paydo bo'ladi. Shu bois ham onasidan ayrilgan, yoriga boshqa yetolmaslik g'amidan (hatto murda dilidan) fig'on "otiladi". "Otilmoq" so'zi aslida "chiqmoq" so'ziga ma'nodosh. Biroq fig'on so'zidagi hissiyotning kuchliligi so'zning "shiddatli", "tez" ma'nolari bilan birlashar ekan, lirik qahramon hislarining junbushga kelganidan va uning kuchayib borishidan dalolat. (She'riyatda ma'noning pag'onama-pag'ona kuchayishi tadrij san'ati deyiladi).

*Fig'on otiladi jonsiz bag'rimdan,
(Go'yo fig'on bordek murda dilida.)
Shu payt ikki kishi o'tdi naridan,
Quvnoq suhbat qurib avar tilida.*

Yuqoridagi band she'rning 5-bandi. She'rning 9 bandligi hisobga olinsa, mazkur banddagi birinchi bayt she'rning qoq markazi hisoblanadi, ya'ni o'n sakkizinchi misra. Shoir mana shu bandgacha qahramon holatini darajama-daraja kuchaytirib keladi va uning ba'ri (murda)dan fig'on otilishini she'rning cho'qqisi, kulminatsiyasi sifatida belgilash mumkin. Mazkur bandning ikkinchi baytidan boshlab lirik qahramonning kayfiyati, holati ijobiy tomonga o'zgara boshlaydi. Chunki notanish kishilarning avar tilida (shoirning ona tilida) quvnoq suhbatlashayotgani qahramon ruhiyatini tinchlantiradi.

Ayniqsa, "quvnoq" so'zining ishlatilishi garchi "ikki kishi"ga tegishli bo'lsada qahramon hislarining salbiydan ijobiyga tomon yo'nalishini anglatadi.

Quyidagi bandda qahramonning qayta tirilganiga, unga qayta jon kirganiga hech qanday dori-darmonlar emas, ona tili sabab qilib ko'rsatiladi. Shoir qo'lagan talmeh san'ati orqali diniy rivoyatlarda keltirilgan Iso Masihning Alloh amri bilan o'liklarni qayta tirilganiga ishora qilinadi va ona tilidagi so'zlarni tinglab qayta tirilgan qahramon xulosa sifatida tasvirlanadi:

"Metodist" 2025-yil 2-son

*Avar so'zin tinglab kirdi menga jon,
Ohista tirildim va shunda bildim:
Meni tuzatolmas hech dori-darmon,
Jonimga masihdir shu ona tilim.*

She'rning sakkizinchi bandida "ona tili" tushunchasining ma'nosi kengaya boradi va har bir insonning o'z ona tilidan zavqu shavq olishi mumkinligi, har bir inson uchun o'z ona tilining buyukligi haqida so'z boradi.

Biroq dunyoda o'z xizmat vazifasini bajarishdan to'xtagan o'lik tilga aylangan tillar ham borligi shoirni hayajonga soladi va "erta ona tilim agar yo'qolsa, men bugun o'lishga bo'lurman rizo" deya qat'iy fikrga keladi. Shunda she'r tarjimoni Erkin Vohidovning "Ona tilim o'lmaydi" she'ridagi mana bu misralar beixtiyor xayolga keladi:

*...Bu sado yangrar hamon,
Sira ado bo'lmaydi.
Olam aytar: hech qachon
Ona tilim o'lmaydi!*

(Erkin Vohidov)

She'rning oxirgi bandi – xotimasi, shoirning xulosasi emas, dunyodagi har bir insonning, millionlab kishilarning qalbidagi hayqiriqdir. Shu bois ham uni shunchaki o'qib bo'lmaydi, shunchaki tinglab bo'lmaydi. U har qanday she'rxonning dilidan quyilib kelib qalbidagi barcha iliq tuyg'ularini junbushga keltiradida, butun vujudini titratib tiliga ko'chadi:

*Mayli, qashshoq bo'lsin, mayli, behasham,
Lekin mening uchun aziz va suyuk.
Jahon minbaridan yangramasa ham,
Ona tilim menga muqaddas, buyuk.*

Shakl va mazmun uyg'unligini saqlagan holda amalga oshirilgan tahlil o'quvchilarning misralar qatida yashiringan ma'nolarni ilg'ab olishiga, shoirning g'oyasini anglab yetishiga yordam beribgina qolmasdan, ularni she'riyatning sirli olamiga boshlab boradi. Chunki mazmunga, mohiyatga shakl – so'z orqali

"Metodist" 2025-yil 2-son

boriladi. Shu bois ham lirik asarlar tahlilida har bir so'z, har bir tovushning va hatto, tinish belgilarining ham she'r mazmunini anglashda o'rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.. Asqad Muxtor. Uyqu qochganda. Tundaliklar (Ikkinchi daftar). lib.tiet.uz/file/20220817063831.pdf.
2. Yo'ldoshev Q, Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016.
3. Husanboyeva Q. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2024.
4. Mirzayeva Z, Jalilov K. Adabiyot (7-sinf o'quvchilari uchun darslik). – Toshkent, 2022.
5. To'xiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.

"Metodist" 2025-yil 2-son

FIDOVI VA KAMTAR METODIST OLIM

Pedagogika fanlari nomzodi, professor Axmadjon Axlimirzayev 2025-yilning 27-mayida o'zining 75 yoshini qarshilaydi.

Ustozning hayoti va ilmiy ijod yo'li juda sarmazmun va hammamizga o'rnak bo'ladigan darajada ibratli deb hisoblayman. Hayoti davomida va hozir ham yosh avlodga berayotgan ta'lim va tarbiya jarayonlaridan doim yangi metodlar va usullarni o'rgansangiz bo'ladi. Dilkashligi, barcha bilan samimiy munosabatda ekanligi uning atrofida juda ko'plab olimlar va shogirdlarning yig'ilishiga sabab bo'lgan deyish mumkin. Keling, ustozning hayoti va ilmiy ijod yo'liga nazar solamiz.

Axmadjon Axlimirzayev 1950-yilning 27-mayida Andijon viloyatining Buloqboshi tumanida xizmatchi oilasida tavallud topgan.

Otasi – Qodirov Axlimirza Buloqboshi mashina-traktor parkida xizmatchi bo'lib ishlagan bo'lsada, u ilmga ixlosmand kishilardan edi. Shuning uchun ham Axmadjon Axlimirzayevning olimlar qatoridan joy olishida padari buzrukvorining xizmatlari katta bo'lgan.

Onasi – Qodirova Ostanaxon, uy yumushlari va farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullangan.

Axmadjon Axlimirzayev 1956-yili Buloqboshi qishlog'idagi 16-maktabning birinchi sinfiga o'qishga bordi va u yerda sakkizinchi sinfgacha ma'lumot oldi. 1964-yildan esa qishloq markazidagi 6-maktabda o'qishni davom ettirdi va uni 1966 yili tugalladi.

Ustoz yoshlik chog'laridanoq o'zining maktabdoshlari orasida namunalı xulqi, odobi, ilmga chanqoqligi va tirishqoqligi bilan ajralib turgan. Uning matematika faniga bo'lgan qiziqishlarini shakllanishida Obidjon Mirzayev, Resim Abduraxmonov, Bo'rivoi Muxitdinov, Tavakkal Burxonov va Ne'matjon Qodirovlarning xizmatlari katta bo'lgan.



"Metodist" 2025-yil 2-son

Axmadjon Axlimirzayev 1966-yili Farg'ona Davlat pedagogika institutining Matematika fakultetiga o'qishga kirdi. O'sha paytda bu fakultetda professor J.K.Karimov, dotsentlar I.I.Inamov, A.K.Qodirov, N.Sotvoldiyev, K.Sarimsaqov, T.Sufiyev kabi yetuk mutaxassislar faoliyat ko'rsatar edi.

Ustoz ulardan matematikaning turli yo'nalishlari bo'yicha bilim oldi va 1970-yili matematika fakultetini imtiyozli tugalladi hamda shu yilning o'zida mehnat faoliyatini o'zi boshlang'ich ma'lumot olgan 16 - maktabda boshladi.

1975-yilning mart oyida professor J.K. Karimovning tavsiyasi bilan u rahbarlik qilayotgan matematik analiz kafedrasiga ishga qabul qilindi. U bu kafedrada ishlash jarayonida talabalar bilan matematik analiz va maktab matematikasi kurslari bo'yicha mashg'ulotlar olib bordi.

Axmadjon Axlimirzayev 1977-yilning sentabr oyidan boshlab fizika fakulteti qoshida tashkil qilingan Oliy matematika va chizmachilik kafedrasiga o'tkazildi va u yerda 1980-yilgacha ishladi.

Axmadjon Axlimirzayevdagi matematikani o'qitish uslublariga bo'lgan qiziqishini o'z vaqtida sezgan kafedra mudiri T.S. Sufiyev uni 1980 -yili Moskva Davlat pedagogika universitetiga ilmiy tadqiqotchi sifatida jo'natdi. Axmadjon Axlimirzayev 1980-1982-yillarda ilmiy tadqiqotchi sifatida sobiq ittifoqning ko'zga ko'ringan uslubchi olimlari N.A. Tereshin, V.I. Mishin, Yu.M. Kolyashi, A.N. Pogorelov, J.Ikromov, N.G'aybulloev va boshqalardan matematikani o'qitish nazariyasi va uslubiyati bo'yicha bilimlarni oldi hamda V.A. Gusev rahbarligida «Прикладная направленность изучения начал математического анализа в старших классах средней школы» nomli mavzuda ilmiy tadqiqot ishini boshladi, hamda uni 1991-yil 7-iyun kuni Moskva Davlat pedagogika universitetining ixtisoslashgan ilmiy kengashida himoya qildi.

Axmadjon Axlimirzayev 1982-yili Moskvadan qaytgandan so'ng o'z faoliyatini yana o'zi ishlagan kafedrada davom ettirdi va u yerda 1985-yilning oxiriga qadar ishladi. 1985-yilning 2-yanvaridan boshlab Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat

"Metodist" 2025-yil 2-son

institutining Andijondagi filialida dastlab o'qituvchi, katta o'qituvchi va keyinchalik dotsent lavozimlarida ishladi.

Axmadjon Axlimirzayev 1987-1988-yillarda filial dekani o'rinbosari, 1988-1995-yillarda esa filial dekani vazifalarida ishladi. 1995-yildan boshlab u Toshkent xalq xo'jaligi instituti, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Andijondagi filiallari negizida tashkil qilingan Andijon muhandislik iqtisodiyot institutining nazariy va amaliy matematika kafedrasida dotsent lavozimida faoliyat olib bordi.

Ustoz 2000-yilning sentabr oyidan boshlab Andijon Davlat tillar pedagogika institutida dastlab O'zbekiston tarixi va iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida, keyinchalik esa Axborot texnologiyalari va tabiiy fanlar kafedrasida faoliyat ko'rsatdi. 2006-yildan 2010-yilgacha u Umumiy tilshunoslik va axborot texnologiyalari kafedrasida dotsent lavozimida ishladi.

A.Axlimirzayev 2010-yildan boshlab 2021-yilgacha Andijon davlat universitetining matematika kafedrasida (hozirgi Amaliy matematika va mexanika) dotsent lavozimida, 2021-yildan 2024-yilgacha professor lavozimini bajaruvchi, 2024-yil 6-yanvardan boshlab professor lavozimida ishlamoqda.

U kafedrada Oliy matematika, Matematikadan masalalar yechish praktikumi, Parametrlı masalalar yechish metodlari va Maktabda matematik analiz elementlari fanlaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar olib boradi. U o'z faoliyati davrida 230 dan ortiq ilmiy-metodik xarakterdagi ishlarni chop etdi (bulardan 10 ta o'quv qo'llanma, 1 ta darslik, 40 ta uslubiy qo'llanma, 180 dan ortiq maqola va tezislari).

Bugungi kunda uning rahbarligida 4 ta tayanch doktorant (ulardan ikki nafari ishini yakunlagan) va 2 ta magistr ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

A.Axlimirzayev iqtidorli talabalar bilan ham faol ish olib boradi. Uning rahbarligida 2017-yili Abdullayeva Nigora Respublika miqyosida o'tkazilgan "XXI-asr intellektual avlod asri" ruknidagi tanlovda faxrli 3-o'rinni, egalladi. 2024-yilda uning rahbarligida 4-kurs talabasi Ibrohimjonov Islombek Ulug'bek nomidagi stipendiya sovrindori bo'ldi.

"Metodist" 2025-yil 2-son

A.Axlimirzayev 2020 va 2023-yillarda universitet miqyosida o'tkazilgan Mutaxassisligi bo'yicha yilning eng yaxshi pedagogi tanlovida faxrli 1-o'rinni egalladi. Bundan tashqari u viloyat miqyosida ko'rsatkichi past bo'lgan maktablar o'qituvchilariga ham metodik yordam berib keladi.

2012-yili Respublika miqyosida o'tkazilgan "Yilning eng yaxshi o'quv adabiyoti" tanlovida faxrli 2-o'rinni, 2016-yilda esa rag'batlantiruvchi o'rinni egallagan.



A.Axlimirzayev fakultet va universitet miqyosida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ham faol ishtirok etadi.

Professor A.Axlimirzayev o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy ishlarni olib boorish bilan birga fakultet va universitet miqyosidagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etadi.

A.Axlimirzayev oilali, 4 nafar farzandi, 8 ta nabira va 2 ta chevaraning sevimli bobosi hisoblanadi. Turmush o'rtog'i Axlimirzayeva O'g'ilxon uzoq yillar Buloqboshi tumanidagi 1-umumta'lim maktabida texnologiya fani o'qituvchisi bo'lib ishlagan. Farzandlari Axlimirzayev Sherzodbek jismoniy tarbiya

"Metodist" 2025-yil 2-son

fani o'qituvchisi va Axlimirzayeva Nilufarxon Andijon davlat tillari pedagogika instituti o'qituvchisi hamda Axlimirzayev Bexzodbek UZCARAM qo'shma korxonasida faoliyat yuritadilar.

Ustoz o'zining kamtarligi, yuksak muomala madaniyatiga ega ekanligi, har bir hayotiy masalaga teran nigoh tashlashi, jonkuyarligi va kerakli maslahatlari bilan nafaqat Matematika va mexanika fakultetining, qolaversa butun universitetning bugungi faoliyatida katta o'rin tutadi.

Ustozga bugungi qutlug' kunda uzoq umr, mustahkam sog'liq, oilaviy baxt, ulkan zafarlar, barkamol avlodni tarbiyalashdek vazifalarida muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Tulanmirza NISHONOV,
Andijon davlat universiteti, Mexanika va matematika kafedrasi katta o'qituvchisi
El-manzil: tulanmirza1@gmail.com

"Metodist" 2025-yil 2-son

Bosh muharrir:
Qunduzxon Husanboyeva.
Pedagogika fanlari doktori, professor.

Tahrir hay'ati:

1. Yusuffjonova Nazokat – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Mas'ul kotib.
2. Nurmuhammadov Jamoliddin – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Texnik kotib.
3. Abduraimov Shohruh – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
4. Danjurova S. – Buxoro PMM o'zbek tili metodisti.
5. Egamberdiyeva K. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), RTM filologiya bo'limi metodisti.
6. Hazratqulov Mutallib – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
7. Hujiyeva M. – RTM tabiiy fanlar bo'limi metodisti.
8. Karimova G. – Qashqadaryo PMM ona tili va adabiyot o'quv fani katta o'qituvchisi.
9. Mahmudov Ravshan – falsafa fanlari nomzodi, professor.
10. Qambarova Saodat – pedagogika fanlari doktori, dotsent.
11. Qodirov Valijon – pedagogika fanlari doktori, professor.
12. Razulov Namas – O'zMU o'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi
13. Rustamova L. – To'raqo'g'on tumani 1-IDJM ona tili va adabiyot o'qituvchisi.
14. Turdiboyev Dilshod – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent.
15. To'ychiyeva Mahfuza – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
16. Tuxliyeva Dilfuza – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
17. Veliyeva Mahmuda – Yunusobod tumani 274-maktab oliy to'fali ona tili va adabiyot o'qituvchisi.
18. Yuldashev Q. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.
19. Yuldasheva S. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
20. Yuldasheva Sh. – O'zDTU professori, pedagogika fanlari nomzodi.

BIR YILDA 6 TA SON E'LON QILINADI.
Tahririyatga kelgan maqolalar Tahrir hay'atining tavsiyasiga binoan jurnalda e'lon qilinadi. Nashr etilmagan maqolalar tahlil qilinmaydi.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahri Yakkasaray tumani Dilbuloq MFY Shota Rustaveli ko'chasi 1-uy.

Jurnal direktori: Xolsaidov F.B.

"Cambria" garnituras.
Shartli bosma tabog'i 6. Nashr bosma tabog'i 6.
Manzil: Toshkent shahri Shota Rustaveli 2-vagon tor ko'chasi 1-uy.



+99893 552-11-21

Nashriyot rozilgisiz chop etish taqiqlanadi.